www.inntechcon.uz

ITC
Innovative Technologies in Construction
Scientific Journal (ITC)



Google Scholar

BASE

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN:2992-8893

Directory of
Research Journal
Indexing
DRJI

OpenAIRE

OPEN ACCESS

Digital
Object
Identifier

zenodo

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN CONSTRUCTION SCIENTIFIC JOURNAL (ITC)

TAHRIRIYAT| EDITORIAL

- **JURNALNING BOSH MUHARIRI:**
- Hamdamova Muxlisa Adxamovna.
- **JURNALNING BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI**
- Qo’ldoshev Ne’matilla Xikmatilla o’g’li.
- **JURNALNING MAS’UL KOTIBI:**
- Abdualiyeva Shaxzoda Saydali qizi.
- **JURNALNING TEXNIK HODIMI:**
- Sobitov Erkin To’lqin o’g’li.
- **JURNALNING TAHRIRIYAT A’ZOLARI:**
- Salimov Baxriddin Lutfullayevich, professor.
- Xalilova Raxima Xamitovna , professor.
- Umarov Xasan Kobilovich, dotsent.
- Muzaffarova Maujuda Kadirbayevna, dotsent.
- Begmatov Pardaboy Abduraximovich, dotsent.
- Mehmonov Mashhurbek Husen o'g'li, dotsent.
- Xal'fin GaliAskar Rustamovich, dotsent.
- Tadjibaev Sherzod Amirqulovich, dotsent.
- Begmatov Nodir Ismoilovich, dotsent.
- Ergashev Ulug'bek Erkinjon o'g'li, dotsent.
- Normurodov Shahboz Ulugbekovich, dotsent.
- Muxammadiyev Ne'matjon Raxmatovich, dotsent.
- Umarov Uchqun Vafoqulovich, dotsent.
- Boltayev Otabek Tashmuxammatovich, dotsent.
- Qutbidinov Odiljon Muhammadjon o'g'li, katta o'qituvchi.
- Sharapov Shuxrat Azamatovich, dotsent v.b.
- Tuychiyeva Malika Nabiyevna, dotsent.
- Hasanov Fozil Farhod o'g'li, dotsent v.b.
- Chorshanbiyev Umar Ravshan o'g'li, dotsent v.b.
- Kurbanova Muxabbat Mamadjonova, dotsent.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN CONSTRUCTION: ilmiy jurnali.-№11 (1) 2024. Jurnal har oyda elektron ko’rinishda chiqariladi. Ta'sischi va noshir: SHINE-AEB MCHJ. https://inntechcon.uz

TAHRIRIYATNING JOYLASHGAN JOYI: Toshkent viloyati, Chinoz tumani, B. G’ofurov ko’chasi 32-uy. Telefon: 99 837 91 18 Email: elyorbek.begaliyevich@mail.ru

ETNOMADANIY IJTIMOIY TARAQQIYOYGA TA’SIRI

Ramatov Jumaniyoz Sultanovich. TDTr.U “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri. Falsafa fanlari doktori, Professor.
Salimov Baxriddin Lutfullaevich. TDTr.U dotsenti.
Juraev Odilbek Saidkarim o‘g‘li. TDTr.U talabasi.

ANNOTATSIYA. Insoniyat paydo bo‘libdiki yashash uchun kurashish jaraènida ulkan o‘zgarishlarni boshidan kechirib kelmoqda. Eng asosiysi, yer kurrasining turli iqtisodiy, ijtimoiy, geografik sharoitlari insonlarning tashqi va ichki madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy jaraèndir. Dunèda minglab millat va elatlar o‘zlariga xos milliy xususiyat va madaniyatiga ega. Milliy madaniyatlar har bir millat èki elat yashab turgan hududning tabiiy joylashuvi, geografiyasi va iqlimi turmush kechirishida mavjud mashg‘ulotlari doirasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish choralarini izlash jaraènida vujudga keladi va keyinchalik milliy urf-odat va an’anaga aylanib boradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy taraqqièt, etnomadaniyat, turkiy xalqlar.

ANNOTATION. Humanity has been going through huge changes in the process of struggle for existence. The most important thing is that it is a natural process that different economic, social and geographical conditions of the globe affect the external and internal culture of people. Thousands of nations and peoples in Dunè have their own national character and culture. National cultures are created in the process of finding ways to overcome the difficulties of the natural location, geography and climate of the area where each nation or people live, and later become national customs and traditions.

Key words: social development, ethnoculture, Turkic peoples.

O‘zbek millati turkiy xalqlarning asosiy bo‘g‘ini sifatida uzoq tarixiy jaraènni boshidan kechirgan yirik millatlardan biri sanaladi. O‘zbekiston geografik jihatdan o‘ta qulay makonda joylashganligi bor haqiqat. Uzoq tarixiy o‘tmishdan o‘zbek xalqiga meros qolgan saxiylik, mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy xususiyatning eng muhim jihati bo‘lib sanaladi[5: 16] Shundan bo‘lsa kerak milliy xarakterimizda vazminlik, sabr-qanoat, bag‘rikenglik kabi fazilatlar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

Buyuk mutafakkir alloma Abu Rayhon Beruniy Hazratlari o‘zining ―Geodeziya‖ (Er tuzilishi va shakli haqidagi fikrlar) yer yuzini yetti iqlimga bo‘ladilar. Yetti iqlim deyilganda ekvator chizig‘idan boshlab, Shimoliy qutbgacha bo‘lgan hududlar yettita kengliklar (parallel) hududlarga ajratilganligi nazarda tutilgan. Tarixda o‘tgan davlatlar dunèning yetti iqlimi hududlariga egalik qilishni orzu qilishganligi bejiz emas. Mamlakatlar qadimda hududiy maydoni, qo‘shinining soni va siyrati, u yerdagi hayvonot va nabotot olamining boyligi bilan ta’riflanar edi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘zining ―Boburnoma‖ asarida ham Mavoraunnahrni to‘rtinchi va beshinchi iqlimda deb aytib o‘tadi. Hindistonni esa birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimda deya ta’kidlaydi. Bugungi kun olimlari iqlim so‘zi o‘rnida mintaqa so‘zini ko‘proq ishlatib keladi. Jahonda tarqalgan barcha elat va xalqlar o‘zlari yashaydigan hududning iqlimi va geografik imkoniyatlaridan kelib chiqib turmush uchun zarur bo‘lgan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadilar. Bir tomondan, Markaziy Osiè xalqlari yuksak imkoniyatlar mavjud hududda yashaganliklari qadimdan ishlab chiqarish, ilm-fan, san’at, madaniyat sohalarida ulkan yangiliklar yaratganligiga ishora bersa, ikkinchi tomondan o‘zbek xalqi qadimdan yaratuvchilik, bunèdkorlik, mehnatsevarlik, jamoaviy ishlarda faol hatti-harakatlari bilan ajralib turgan. Mamlakatimiz tarixida bunèd etilgan juda ko‘plab kanallar, ko‘priklar, qal’a devorlari, kommunikatsiya inshootlari hashar yo‘li bilan barpo etilgani haqida ma’lumotlar beriladi. Markaziy Osiè xalqlari qadimgi misrliklardan farqli o‘laroq dehqonchilik sohasida katta burilishlar yasagan. Yurtimizda istiqomat qilgan o‘troq aholi vakillari yerga ishlov berib, turli dehqonchilik mahsulotlari

yetishtirib tirikchilik qilgan bo‘lsa, Dashti Qipchoqdan ko‘chib kelgan qo‘ng‘irot, loqay, qarluk, turk kabi yirik urug‘lar chorvachilikning barcha turlari bilan shug‘ullanib kelgan. Mazkur ishlab chiqarish sohalari orqali yurtimizda ulkan madaniyatlar yaratilib, ushbu madaniyat asta-sekin savdo yo‘llari orqali butun dunèga (èyilganligiga) eksport qilinganligiga tarixiy manbalarda guvoh bo‘lamiz. Zamonamizning buyuk adiblaridan biri Abduqahhor Ibroximovning ―Bizkim, o‘zbeklar‖ kitobida AQShning Chikago shahrida 200 ming nusxada chop etilgan ―The World Encyclopedia dicticnary Book‖ (―Jahon qomusiy lug‘ati‖) nomli ikki jildli kitobda o‘zbek millatiga ―O‘zbek – jahon xalqlari orasida qadimiy xalqlardan bo‘lib, turkiy xalqlar o‘rtasida birinchi bo‘lib o‘troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan millat...‖[4:27] - deya ta’rif berilgani aytib o‘tilganligi barchamizni quvontiradi albatta. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998 yil 24 oktyabrda YuNESKO ijroiya Kengashining 155-sessiyasida ―Men umuminsoniy qadriyatlar rivojini har bir xalq madaniyati va o‘ziga xosligining o‘zaro uyg‘unlashuvida deb bilaman, – deydi. – Madaniyatlarning shu tarzdagi uyg‘unlashuvigina umuminsoniy madaniyat va butun sivilizatsiyaning go‘zalligi va qadr qimmatini yaratadi. Zero, umumiy sivilizatsiya turli xalqlarning madaniyatlaridan shakllanadi‖[3] -deb ta’kidlab o‘tadi. Bu bilan o‘zbek xalqi tarixiy davrlarda dunè sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqlardan biri ekanligiga ishora qilgan.u Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo‘lgan yuksak ma’naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to‘fon va bo‘ronlardan sog‘-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og‘ir va murakkab sharoitlarda ham ota-bobolarimiz o‘zligini yo‘qotmasdan, ma’naviy haèt mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo‘lib, kuch-quvvat bag‘ishlamoqda. Ma’lumki, har qaysi xalq èki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Masalan, Sharq olamida, jumladan, o‘zimizning O‘zbekiston sharoitida jamoa bo‘lib yashash tuyg‘usi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo‘llab - quvvatlab haèt kechirishga zamin yaratadi. Shu ma’noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki haètimizning uzviy bir qismi sifatida namoèn bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz. Bu esa yurtimizda olib borilaètgan islohotlarni izchil amalga oshirilishida xalqimizning yuqorida qayd etib o‘tgan fazilatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda dunèning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va sièsiy manzarasi doirasida turlicha keskinliklar yuzaga kelaètgan bir paytda yurtimiz uzra amalga oshirilaètgan ishlar butun jahon afkor-ommasini hayratga solayapti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Afsuski, mamlakatimiz tashqi sièsatida ochiqlik tamoyillariga rioya etaètganligi jaraènida yurtimizga suqilib kiraètgan èt an’analar, urf odatlar, qolaversa bizga butunlay begona bo‘lgan xarakter ham shakllanaètganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Globallashuv jaraènida bunday hodisalar kuzatilishi tabiiy hol. Hindistonning mashhur davlat arbobi Maxatma Gandi globallashuv jaraèniga: ―Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olimayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kiraètgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman‖ – deb ta’rif berib o‘tadi. Bu bilan globallashuv jaraènining ijobiy va salbiy jihatlarini o‘z vaqtida anglab, ularga qarshi g‘oya va ma’rifat bilan javob berish kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Mamlakatimizda aholining 60 foizdan oshig‘ini èshlar tashkil etishini hisobga olsak, èshlar orasida xalqimizning qadimiy va yuksak ma’naviy fazilatlari haqidagi mumtoz axloqiy qoidalarni kengroq èritib borish maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Vaholangki, o‘zbek atamasi xuddi turk so‘zining ekvivalenti – ma’nodoshi bo‘lib, o‘ziga ishonuvchi, mustaqil fikrlovchi va ish yurituvchi, botir, mard, èvqur, chekinmas singari fazilatlarni anglatgan. Abdurauf Fitrat ham o‘zining ―Abulfayzxon‖ tragediyasida ―O‘zbek o‘g‘lonlari botir bo‘lurlar‖ deb aytib o‘tadi. Zero, bugungi kunda èshlarimiz tomonidan xalqaro maydonlarda sport, ilm-fan, madaniyat va san’at yo‘nalishlarida qo‘lga kiritaètgan ulkan natijalari, o‘ylaymizki, qadimdan buyuk va yuksak madaniyat yaratgan ajdodlar vorisi ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda Harakatlar strategiyasi doirasida ―Yoshlar – kelajak bunèdkori‖, ―Obod qishloq‖, ―Obod mahalla‖, ―Aqlli shahar‖ ―Xavfsiz shahar‖, ―Xavfsiz hudud‖ kabi keng qamrovli dasturlari qatoriga ―Har bir oila tadbirkor‖, ―Yoshlar kelajagimiz‖ kabi jamg‘armalarning tashkil etilishi va amalga oshirilishida aynan ana shunday tashabbuskor, har bir masalaga yangicha èndashadigan xalqimizning barcha qatlamlari faol ishtirok etaètgani, hech shubhasiz, barchamizni mamnun qiladi. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ―Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch‖ kitobida keltirib o‘tilgan misollarni sanab o‘tishni joiz deb bildik. Ya’ni, ―Agar biz dunè tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo‘lga kiritish, milliy tiklanish, o‘z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jaraènida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda — bu iqgisodièt èki ijtimoiy haèt bo‘ladimi, madaniyat, ta’lim-tarbiya va ilm-fan bo‘ladimi — o‘zining beqiès ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro‘èbga chiqarish hisobidan taraqqiètga erishganini ko‘ramiz.‖[2: 68] Bunda misol sifatida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ikkinchi jahon urushidan keyin har tomonlama og‘ir ahvolga tushib qolgan Yaponiya èki Janubiy Koreyani alohida ko‘rsatib o‘tadilar. Ushbu hududlar mo‘l-ko‘l tabiiy xomashè manbalari, meniral resurslar juda kam mamlakatlar sirasiga kiradi. Shunday bo‘lsada yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunèdkor kuchga aylangan o‘ziga xos milliy ma’naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun «yapon mo‘jizasi» èki «koreys mo‘jizasi» haqida gap ketganda xalqaro iqtisodièt sohalari mutaxassislari birinchi galda «yapon xarakteri», «koreys tabiati» degan iboralarni tilga oladi Keyingi besh yil mamlakatimizda yangi va zamonaviy innovatsiyalarni haètga tatbiq etilaètgan davr bo‘ldi. Buni ko‘z oldimizga keltirish uchun Harakatlar strategiyasi hamda taraqqièt strategiyasi doirasida amalga oshirilaètgan ishlarni ko‘z oldimizga keltirish kifoya. Tarixda ne-ne sinovlarni boshidan o‘tkazgan; sabr-qanoatda tengi yo‘q xalqimiz mamlakatimiz uzra quloch èzib boraètgan o‘zgarishlar pallasida o‘zining tom ma’nodagi xarakteri va tabiatini namoèn etib, barcha sohalarda mardonavor mehnat qilmoqda. Hukumatimiz esa xalqimiz xohish-irodasidan kelib chiqqan holda islohotlar olib bormoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirzièev, ―Bizning eng asosiy yutug‘imiz – ko‘pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunèqarashi, sièsiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib boraètgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaètganidir‖[1: 286] – deya ta’kidlab o‘tadi. Albatta, ushbu islohotlar samaradorligini ta’minlash doirasida xalqimizning hukumatimiz tomonidan ilgari surilaètgan bunèdkorlik g‘oyasi atrofida jipslashib harakat qilaètganini alohida ta’kidlab o‘tmog‘imiz lozim.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalqining mentalitetida barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi ko‘plab fazilatlarning rivoj topishini taqozo etib kelyapti. Xalqimiz ichki xarakteridagi bag‘rikenglik, hotamtoylik, mehmondo‘stlik, tinchliksevarlik, o‘zaro hamkorlikka moyillik, xursandchilik va g‘am-anduhli damlarda o‘zaro hamfikrlilik, yelkadoshlik fazilatlari ana shu jamoaviy yakdillikni ta’minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtièjlaridan tug‘ilgan va sayqal topgandir. Yana shuni aytish kerakki, xalqimizning intellektual ma’naviy qièfasi mentalitetiga xos muhim jihatlaridan biri ilm-fanni

nihoyatda hurmatlash, ta’lim hamda kasbga alohida e’tibor qaratishini kuzatish mumkin. Mamlakatimiz uzra amalga oshirilaètgan ulkan o‘zgarishlarning zamirida xalqimizning o‘ziga xos ijobiy jihatlari ètganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Валиев, Л. А. (2022). IX-X АСРЛАРДА ЎРТА ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ АҲЛОҚИЙ ТАРБИЯ ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАРИ (АЛ-ФОРОБИЙ АСАРЛАРИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 3(6), 660-669.
2. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Валиев, Л. А. (2022). IX-X АСРЛАРДА ЎРТА ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ АҲЛОҚИЙ ТАРБИЯ ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАРИ (АЛ-ФОРОБИЙ АСАРЛАРИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 3(6), 660-669.
3. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., & Тухтабоев, Э. (2022). ЎЗБЕК ЭТНОМАДАНИЯТИНИНГ ЖАҲОН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА ТУТГА Н ЎРНИ. World scientific research journal, 9(2), 3-8.
4. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.

FINLANDIYADA BOSHLANG'ICH TA'LIMINI OLIB BORISH USULLARI TAHLILI

Qobilova Dilshoda Xalil qizi Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy tamoyillari o'qituvchi va o'quvchilarning rivojlanishi uchun pedagogik sharoitlar o'rganiladi. Shuningdek, o'quv jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar va amaliyotlarning samaradorligi, hozirda O'zbekistonda ham Finlandiya ta'lim tizimi kirib kelayotganligi va ta'lim metodikalari orasida bir necha farqlar mavjudligi haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar*:* Sinfdagi o'qitish metodikasi, baholash tizimi, maktab muhitining erkinligi.

Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi butun dunyo bo'ylab yuqori sifati hamda tez fursatlarda rivojlanishi bilan tanilib kelmoqda. Finlandiyaning ta'lim tizimining eng muhim xususiyatlaridan biri bu barcha fanlar tenglik asosida amalga oshiriladi. Finlandiyada bolalar maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi. Yettinchi sinfdan boshlab bolalar o'rta ta'limning 3 yil davom etadigan birinchi bosqichiga o'tadi. Boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning 1-bosqichida barcha bolalar bir xil ta'lim oladi. Finlandiyada boshlang'ich ta'lim 9yil davom etadi. O'quvchilar 16yoshdan o'qishni tark etishi mumkin. Ushbu g'oya Finlandiya o'quvchilarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan. Finlandiya boshlang'ich ta'limida o'qitish metodikasi o'quvchilarning qiziqishi asosida bo'ladi. O'quvchilarning asosan ijodkorligiga, fikrlashiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Finlandiyada o'qituvchilarning jamiyatdagi o'rni ancha yuqori. O'qituvchilari xuddi shifokorlar va yuristlar kabi maqomga ega [1, 2]. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari kamida magistr darajasiga ega bo'lishlari kerak.O`zimizda esa o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va malakasini oshirish tizimi mavjud, lekin magistr darajasi talab qilinmaydi.O'qituvchilarga ko'proq erkinliklar yaratib berilgan, ular darslarini qay holatda olib borishlarini o'zlari tanlaydilar. Finlandiya o'qitish metodikasini o'ziga ko'proq e'tiborini tortgan tarafi ularda o'quvchilarga raqamli va harfiy baholar qo'yilmaydi. O'quvchilarning bilim darajasi va rivojlanishi o'qituvchi tomonidan muntazam kuzatilib ularning o'sishi va rivojlanishiga juda katta imkoniyatlar yaratib beriladi. Barcha rivojlangan davlatlar qatorida Finlandiyada ham darslar 45 daqiqa bo'ladi va darsdan keyin bolalar 15 daqiqalik tanaffus oladilar. Bu bolalarning o`z fikrlarini jamlab olishga va keyingi darsga tayyor bo'lishiga yordam beradi. Finlandiya ta'lim tizimi bolaga yo'naltirilgan, butun bolani qamrab oladigan yondashuvni ta'kidlaydi, bu esa o`quv jarayonini hamkorlikka va moslashuvchanlikka asoslaydi,har bir bolaning individual kuchli ta'raflariga e'tibor berilib,ularda o'rganishga haqiqiy qiziqishni uyg'otadi. Finlandiya o'qituvchilari sinfni bitta organizm sifatida baholaydilar,ularda hujayralar kabi har bir narsa bir-biriga o'xshash. Aksincha, o'qituvchi har bir bolasini qobiliyatlari asosida tayyorlaydi [3, 4].

Shunday qilib, har bir kishi tekshirish ishida o'z bilimiga mos keladigan ko'p bosqichli vazifalarni oladi. Bu ham uy vazifasi uchun ham amal qiladi. Finlandiya fan dasturlarida o'zaro mutanosiblik juda yaxshi ta'minlangan. Masalan, biron sinfda geografiyadan Osiyo mamlakatlari o'tilsa, o`sha haftada biologiyadan ham Osiyoda o'suvchi o'simliklar, tarixdan ham Osiyo xalqlari tarixi, matematikadan ham Osiyoga oid ma'lumotlardan iborat misollar beriladi. Finlandiyada xususiy maktablar mavjud emas. Fin maktablari o'rtasida raqobat yo'qligining sabablaridan biri shuki,barcha maktablar davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois qayerdadir yaxshi, qayerdadir sustroq ta'lim berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Finlandiya maktablarini muhiti ham bolalar uchun juda qulay qilib berilgan hattoki, maktab binolari ham bolalar uchun qulay va jozibali tarzda bezatilgan. PISA dasturi 2000-yilda tashkil etilgandan buyon Finlandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan Fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Bizning prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Finlandiya ta'lim tizimini sinchikovlik

bilan o'rganib, bizning yurtimizda ham bu tizimni amalda qo'llashni ma'qul ko'rdilar. Finlandiya maktablarida barcha o'quvchilarning tushligi davlat tomonidan qoplab beriladi. Ularda yana ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lib,bolani uydan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2kilometrdan uzoqda bo'lsa, o'quv darsliklari, barcha o'quv-qurollari,kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar. Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig'ish taqiqlanadi. 1943-yildan mazkur amaliyotga amal qilib kelinmoqda. Finlandiya va O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim metodikasi orasida bir qator muhim farqlar mavjud.Finlandiyada ko'proq o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Bir fanning boshqalardan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhumroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin. O'quvchilar darslarda faol ishtirok etishlari va bilimlarni o'zlari o'zlashtirishlari uchun erkin muhit yaratadi. O'zbekiston ta'lim tizimida darslar odatda an'anaviy uslubda, ya'ni o'qituvchi tushuntirish va o'quvchilarga ma'lumot yetkazishda asosiy rol o'ynaydi. Finlandiya ta'lim tizimida baholashda imtihon va reytinglarga katta urg'u berilmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga e'tibor qaratilib,baholash o'quvchilarning stressini kamaytirishga yo'naltirilgan.Bizning ta'lim tizimimizda o'quvchilarni baholash va o'zaro taqqoslashga ko'p urg'u beriladi.Imtihonlar va test sinovlari orqali o'quvchilarning bilim darajasi aniqlanadi,bu esa ko'pincha stress va raqobatga olib keladi. Shuningdek, Finlandiyada o'quvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi. Ularda yaxshi va yomon o'quvchilar ham yo`q. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo'shroq bolalar ham "o'ziga xos"hisoblanib,barcha bilan birga o'qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham ta'lim oladi. Oddiy maktabda ko'rish va eshitish organlari kasalliklari bo'lgan o'quvchilar uchun sinf tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Finlar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo'sh o'quvchilar orasidagi farq-juda kichik.O'qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi. "sevimlilar" ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o'qituvchi bilan shartnoma buzilishiga olib keladi. Fin o'qituvchilari faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar -fiziklar ham, adabiyotchilar ham, mehnat o'qituvchilari ham birdek teng.Finlandiyada bir qoida mavjud bo'lib, "Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz",-deydi finlar. Shuning uchun Finlandiyadagi maktablarda imtihonlar yo`q. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o'tkaziladi.

Xulosa: Finlandiya ta'lim tizimida ijtimoiy tenglikka katta e'tibor qaratiladi, bu degani ularning ijtimoiy kelib chiqishiga qaramasdan barchaga yuqori darajadagi bilim olishlarini kafolatlab beradi. Mening fikrimcha,baholash tizimining minimal darajada bo'lishi, o'quvchilarga harfiy va raqamli baholar qo'yilmasligi o'quvchilarning faqat baho olishlari uchun emas, balki o'z ustida ishlashlari uchun yordam beradi. Yana bir ustuvor taraflaridan biri, o'qituvchining darajasi, maqomi juda katta rol o'ynaydi. Finlandiyada o'qituvchilar o'z darslarini o'zlari xohlagan holatda o'ta oladilar bu degani o'qituvchi o'quvchilarga emas balki o'quvchilar o'qituvchilarga moslashgan holda ta'lim oladilar.Xo'sh bunday natijalarga Finlandiya qanday qilib erishmoqda deb o`zimizga savol berishimiz mumkin. Ularning ta'lim tizimini o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki,Finlandiya maktablarining o'quv dasturlari bolalarga berilayotgan har qanday bilimlarni amaliyotga qanday va qayerda qo'llashni o'rgatishga,ularni ijodiy va erkin fikrlashga undashga yo'naltirilgan. Finlandiyada o'qishni istagan odam o'qiydi.Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi,lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa,darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi",

bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan,amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku axir!!

Adabiyotlar

1. Berisha, A. and P. Seppänen (2016), "Pupil selection segments urban comprehensive schooling in Finland: composition of school classes in pupils' school performance, gender, and ethnicity", Scandinavian Journal of Educational Research, Vol. 61/2, pp. 240-254;

2. Bernelius, V. and H. Huilla (2021), Educational equity, social and spatial segregation and opportunities [Koulutuksellinen tasa-arvo, alueellinen ja sosiaalinen eriytyminen], Finnish Government, http://urn.fi/URN:ISBN:978-952-383-761-4 (accessed on 7 August 2023);

3. Finlandiya ta`lim mo`jizasi – kitobi;

4. Finlandiya ta'lim tizimining asosiy afzalliklari va kamchiliklari - Alisher Anvarov maqolasi.

ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ГЕОМАТЕРИАЛОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ЗЕМЛЯНОМ ПОЛОТНЕ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ

Мирзахидова Озода Мирабдуллаевна
докторант ТГТрУ, ozoda_27@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются основные виды геосинтетических материалов, таких как геотекстиль и геосетки, используемых для усиления земляного полотна железных дорог на примере Узбекистана. Приведены статистические данные о применении этих материалов в строительстве и эксплуатации железных дорог страны, а также рассмотрены их преимущества для повышения устойчивости земляного полотна. Показаны основные формулы, использующиеся для оценки деформаций и нагрузки на земляное полотно при использовании геосинтетиков, а также приведены диаграммы и иллюстрации, демонстрирующие их эффективность.

Ключевые слова: геотекстиль, геосетка, земляное полотно, железные дороги Узбекистана, геосинтетические материалы, усиление основания

Введение. Развитие железнодорожной инфраструктуры в Узбекистане требует внедрения инновационных решений для усиления земляного полотна. Одним из эффективных решений является использование геосинтетических материалов, таких как геотекстиль и геосетки, которые позволяют повысить долговечность и устойчивость конструкций.

Геотекстиль и геосетки играют ключевую роль в предотвращении деформаций земляного полотна и увеличении его несущей способности. Эти материалы активно применяются на железных дорогах Узбекистана, где сложные климатические условия и неоднородные грунты создают дополнительные проблемы для стабильности дорожного полотна.

В последние годы одним из наиболее перспективных и широко используемых в транспортном строительстве способов усиления земляного полотна стало применение различных видов геосинтетических материалов (геотекстили, геосетки, георешетки, геоячейки, геомембраны, геоматы, геокомпозиты различных видов). Геоматериалы используются в транспортном и гражданском строительстве многих ведущих стран мира (Великобритания, Германия, Франция, Швейцария, Австрия, Франция, Италия, США, Россия) и хорошо зарекомендовали себя при решении различных инженерных задач.

Геосинтетики (геосинтетические материалы, геоматериалы) представляют собой широкий спектр различных полимерных материалов, используемых в геотехническом, гидротехническом и транспортном строительстве, применение которых в конструкциях земляного полотна может быть разделено по следующим основным признакам.

по типу конструктивных элементов;

1. Геотекстиль - водопроницаемый, полимерный (синтетический или натуральный) текстильный материал, произведенный в виде полотен, рулонов; может быть тканым или нетканым. Тканый геотекстиль -плоские и ровные структуры, образованные переплетением двух или более рядов нитей, волокон, лент или других элементов. Нетканый геотекстиль - плоские текстильные структуры, состоящие из нитей, расположенных случайным образом, связанных между собой иглопробивным, термическим или химическим способом. В зависимости от длины нитей различаются нетканый геотекстиль спошного волокна и из коротких нитей (или комочков);



2. Геосетки (Geonets) - полимерные сетчатые структуры с ромбовидной формой ячеек, сформированные двумя наложенными друг на друга пересекающимися нитями, которые образуют комплекты сплошных глубоких каналов, обеспечивающих высокую способность к просачиванию жидкости;



3. Георешетки (Geogrids), или плоскостные георешётки - плоские структуры, выполненные из полимерных материалов (обычно из полиэтилена высокой плотности, полипропилена или полиэстера) при помощи процесса экструзии или сварки сплющенных лент. Экструдированные георешетки, ориентированные в одном направлении - георешётки из полиэтилена высокой плотности или полипропилена, полученные путем экструзии и последующего продольного растягивания. Экструдированные георешетки двойного ориентирования - георешётки из полиэтилена высокой плотности или полипропилена, полученные путем экструзии и последующего продольного и поперечного растягивания. Клееные георешетки - георешетки, полученные путем переплетения и склеивания в виде открытых ячеек двух или более пучков нитей. Тканые георешетки - георешетки полученные путем переплетения в виде открытых ячеек пучков двух или более нитей;



4. Геоячейки (Geowebs, Geocells), или объемные георешетки - представляют собой конструкции из синтетических лент, скреплённых между собой посредством сварных швов таким образом, что при растяжении в поперечном направлении они образуют сотовидную конструкцию;



5. Геомембраны абсолютно непроницаемые материалы, выпускаемые в виде пластин, рулонов и используемые в геотехническом, гидротехническом и транспортном инженерном строительстве. Синтетические геомембраны - геомембраны, изготовленные в основном из синтетических структур, таких как полиэтилен, полипропилен и др. Битумные геомембраны – геомембраны.



Узбекистан, обладая значительной протяженностью железных дорог и разнообразными климатическими условиями, активно внедряет современные технологии для усиления железнодорожного полотна. Использование геотекстиля и геосеток в Узбекистане значительно увеличило срок службы железнодорожных путей. В ряде проектов внедрение этих материалов позволило сократить расходы на ремонт и увеличить интервал между капитальными ремонтами.

На 2023 год на железных дорогах Узбекистана было применено более 500 тысяч м² геосинтетических материалов. Это позволило снизить частоту ремонтов железнодорожных путей на 15% и уменьшить деформации земляного полотна на 20%.

Применение геосинтетиков приводит к значительному снижению вертикальных и горизонтальных деформаций земляного полотна. Для расчета прочностных характеристик земляного полотна с учетом геосинтетиков используется следующая формула:

$$\sigma = \frac{F}{A}$$

Где: σ- напряжение на земляное полотно,

F -приложенная нагрузка,

A - площадь, на которую действует нагрузка.

Пример расчета для железной дороги Узбекистана, где используется полиэтиленовая геосетка с характеристикой прочности на разрыв 1000 Н/м, показывает снижение напряжений в земляном полотне на 25%.

Использование геотекстиля и геосеток в железнодорожной инфраструктуре Узбекистана обеспечивает:

- Увеличение срока службы земляного полотна на 30%.
- Снижение затрат на эксплуатацию и ремонт на 20%.
- Улучшение стабильности грунтов и предотвращение эрозии.

Заключение: Применение геотекстиля и геосеток для усиления земляного полотна на железных дорогах Узбекистана доказало свою эффективность. Статистические данные показывают значительное снижение деформаций и улучшение эксплуатационных характеристик железнодорожных путей. Внедрение этих технологий позволяет повысить надежность железнодорожной инфраструктуры, особенно в условиях сложных грунтов и экстремальных климатических условий.

Список литературы:

1. Журавлев, Игорь Николаевич. Оценка влияния геоматериалов на напряженно-деформированное состояние железнодорожного земляного полотна : диссертация ... кандидата технических наук : 05.22.06. - Санкт-Петербург, 2005. - 216 с.
2. Лесов, К. С., Абдужабаров, А. Х., Кенжалиев, М. К., & Мирзахидова, О. М. (2024). TECHNICAL AND ECONOMIC EVALUATION OF GEOTEXTILE APPLICATION AS A SEPARATING LAYER: TECHNICAL AND ECONOMIC EVALUATION OF GEOTEXTILE APPLICATION AS A SEPARATING LAYER. Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации, (1), 128-137.
3. Воробьев С.Н., Матвеев Е.А. Геосинтетические материалы и их применение в транспортном строительстве. Москва: Стройиздат, 2018.
4. Международный форум по железнодорожным технологиям. Отчет по применению геосинтетиков в странах Центральной Азии, 2023.
5. Лесов К. С., Мирзахидова О. М. УСИЛЕНИЕ ОСНОВНОЙ ПЛОЩАДКИ ЗЕМЛЯНОГО ПОЛОТНА ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ: УСИЛЕНИЕ ОСНОВНОЙ ПЛОЩАДКИ ЗЕМЛЯНОГО ПОЛОТНА ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ. – 2023.
6. Лесов, К., Абдужабаров, А., Кенжалиев, М., & Мирзахидова, О. (2023). Экспериментальные исследования по усилению основной площадки земляного полотна с применением геотекстиля. *Сейсмическая безопасность зданий и сооружений, 1*(1), 321-325.
7. Лесов К. С., Абдужабаров А. Х., Кенжалиев М. К. У. Технология усиления основной площадки земляного полотна в зонах рельсовых стыков с применением геотекстиля //Известия Транссиба. – 2022. – №. 4 (52). – С. 106-114.
8. Ахмедов А.А., Хасанов У.Р. Применение геосинтетиков в строительстве железнодорожных путей. Ташкент: Издательство Ташкентского института инженеров железнодорожного транспорта, 2020.

MA’NAVIY TARBIYA – JAMIYAT BARQARORLIGIINING MEZONI

Ramatov Jumaniyoz Sultanovich. TDTr.U “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri. Falsafa fanlari doktori, Professor.
Salimov Baxriddin Lutfullaevich. TDTr.U dotsenti.
Yo‘ldashev Iskandar ismoil o‘g‘li. TDTr.U talabasi.

ANNOTATSIYA. Maqolada mustaqillikni mustahkamlashning faol kurashchisi bo‘lib, milliy bayramlardan, marosimlarda g‘oyaviy targ‘ibotdan foydalanish, globalizm illatlariga, axborot xurujiga, “ommaviy madaniyat” tahdidiga nisbatan g‘oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o‘zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, buzg‘unchi g‘oyalariga, xoinlikka, loqaydlikka, mahalliychilikka, terrorizmga, kosmopolitizmga qarshi kurashish, buyuk kelajakka ishonch hissi bilan yashash fazilatlari ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy kamolot, mustaqil fikrlash, g‘oyaviy immunitet.

ANNOTATION. In the article, he is an active fighter for the strengthening of independence, using national holidays, ideological propaganda in ceremonies, demonstrating ideological combativeness against the evils of globalism, information attack, the threat of "mass culture", being able to fight for the protection of national identity, against destructive ideas, treason, indifference, localism, terrorism. , the importance of the qualities of fighting against cosmopolitanism and living with a sense of confidence in the great future is revealed.

Key words: Spiritual maturity, independent thinking, ideological immunity.

Ma’naviy kamolot qirralari va muammolari haqida juda ko‘p fikrlar aytish mumkin, imkoniyatdan kelib chiqib biz ma’naviy kamolotning mezonlaridan biri bo‘lgan mustaqil fikrlash haqida so‘z yuritmoqchimiz. Mustaqil fikrlash elementlar shaklida deyarli har bir kishilarda mavjud, ya’ni eng oddiy holatlarda ham kishi o‘z-o‘zini boshqaradi. Ammo biz fikr yuritadigan mustaqil fikrlash, yurtimizda bo‘layotgan har bir jarayon va unta oid bo‘lgan har bir munosabatga nisbatan, o‘z vaqtida to‘g‘ri va ob’ektiv fikr bildirish va o‘z munosabatini belgilab olishdir. Yoshlarning mustaqil fikrlashi haqida so‘z borar ekan, avvalo, hozirgi kunda yoshlar o‘rtasida. aynan shu fazilatning yetishmasligi oqibatida jamiyatda kelib chiqayotgan illatlar haqida bir fikr yuritaylik. Bu illatlarning keng tarqalganlari: 1. Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik; 2. G‘oyaviy immunitetning pastligi oqibatida buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qolish; 3. Yoshlar jinoyatchiligi va huquqbuzarligi. Shu uch illat, oxir-oqibat yoshlarimizga jinoyatchi muhrini bosish va ularni tom ma’noda yuqotishimizga sabab bo‘lmoqda. Aslini surishtirganda bularning zaminida, mafkuraviy tarbiyaga e’tiborning kamligi natijasida yoshlarning bu kabi illatlarni kelib chiqish sabablari va mohiyatini bilmasligi yoki ochiqdan-ochiq bu kabi hodisalarga ma’naviy jihatdan qarshilik qilishga ojizlik, ya’ni mustaqil fikrlay olmaslik, o‘zgalarning fikriga, yo‘liga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunishi yotibdi. Agarda yuksak ma’naviyatli jamiyat shakllanishiga qat’iy ishongan, bunga chuqur e’tiqod etadigan kadrlar yetishtirilsa, avvalo shunday jamiyat bo‘lishiga komil ishonchi va e’tiqodi bo‘lgan imonli, barkamol insonlarni tarbiyalay olinsagina ana shu jamiyat va davlatda barqarorlik, farovonlik, osoyishtalik, taraqqiyot tezlashadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, toki bugungi kunga qadar bu masalaga davlat siyosati darajasida qarab kelingan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, moddiy va ma’naviy olam uyg‘unlashib, insonning ko‘sh qanotiga aylansangina, jamiyatning to‘laqonli erkin rivojlanishi ta’minlanadi. Lekin, afsuski, ma’naviy inqirozning oldini oladigan, yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishni kafolatlaydigan ta’lim-tarbiya tizimi dunyoda xali yaratilmaganligini bugun hayotning o‘zi tasdiqlab ko‘rsatmoqda. Haqiqatdan ham, bugun murakkab

vaziyatda ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma’naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma’naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan himoya qilishni talab qilmoqda. Hech shubhasiz, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi qanday tahdidning paydo bo‘lishi o‘zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o‘ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, bunday ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishi, ulardan avvalo farzandlarimiz ko‘proq aziyat chekishi mumkinligi, yoshlarda ma’naviy-axloqiy ongi yanada yuksaltirishni taqozo etmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida bu fazilatlarni shakllantirish o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Xususan, yuqoridagi ma’naviy-axloqiy fazilatlar oliy ta’limda yanada mustahkamlanadi va hayotda faoliyat mezoniga aylanadi. Tarbiyaviy ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalarida talabalarda o‘z faoliyatida maqsadli kurash olib borish, mustaqil fikrga ega bo‘lgan fidokor, tarixni to‘g‘ri anglash, o‘z kuchiga ishonchni qabul qilish, islohotlarda faol ishtirok etish, urf-odatlarni, an’analarni asrash, demokratiyaga hurmat bilan qarash, ezgu g‘oyalarga sadoqat, ma’rifatni yot g‘oyalarga qarshi qo‘ya bilish, ogohlikni, bunyodkorlikni, ma’naviy yuksaklikni namoyon etish, jamoa tashkilotlarida faol ishtirok etish, mafkuraviy tahdidga qarshi kurash, globallashuvning salbiy jihatlarini fosh etish, yurt tinchligini saqlash, demokratiya eksporti mohiyatini fosh etish fazilatlari namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, mustaqillikni mustahkamlashning faol kurashchisi bo‘lib, milliy bayramlardan, marosimlarda g‘oyaviy targ‘ibotdan foydalanish, globalizm illatlariga, axborot xurujiga, “ommaviy madaniyat” tahdidiga nisbatan g‘oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o‘zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, buzg‘unchi g‘oyalariga, xoinlikka, loqaydlikka, mahalliychilikka, terrorizmga, kosmopolitizmga qarshi kurashish, buyuk kelajakka ishonch hissi bilan yashash fazilatlari shakllanadi. Shu boisdan ham yoshlar tarbiyasining muhim bo‘g‘inlaridan biri – oliy ta’lim muassasalari deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, oliy o‘quv yurtlarida davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlardan keng va samarali foydalanib, ta’lim-tarbiya ishlariga katta e’tibor qaratish zarur. Oliy ta’lim muassasasida tarbiyaning barcha sohalari va ayniqsa, ushbu yo‘nalishlari bo‘yicha alohida ta’lim-tarbiya ishlari olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Валиев, Л. А. (2022). IX-X АСРЛАРДА ЎРТА ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ АҲЛОҚИЙ ТАРБИЯ ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАРИ (АЛ-ФОРОБИЙ АСАРЛАРИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 3(6), 660-669.

2. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., & Тухтабоев, Э. (2022). ЎЗБЕК ЭТНОМАДАНИЯТИНИНГ ЖАҲОН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА ТУТГА Н ЎРНИ. World scientific research journal, 9(2), 3-8.

3. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION.

4. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.

5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.

6. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022). Жамиятнинг шаклланиши ва такомиллашувида бошқарув ва тарбия санъатининг ўрни. Academic research in educational sciences, 3 (11), 359-365.

7. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич ,Ҳасанов Миршод Нўъмонович. ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 2, lssue 4, 2022. -P.1345-1354.

ПОВЫШЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО НАСЫПИ ГЕОСИНТЕТИЧЕСКИМИ МАТЕРИАЛАМИ

Адбукаюмов Фаррух Отабек угли
Абдукамилов Шавкат Шухратович

Аннотация. Данное статье геосинтетические материалы играют важную роль в современной инфраструктуре железных дорог, обеспечивая устойчивость, долговечность и эффективность железнодорожных путей. Эти материалы включают в себя широкий спектр продуктов, таких как геотекстиль, георешетки, геомембраны и другие, которые используются для различных целей, включая укрепление земляного полотна, дренаж, защиту от эрозии и снижение воздействия нагрузок.

Ключевые слова: геосинтетические материалы, железнодорожные насыпи, устойчивость, армирование, дренаж, моделирование.

Введение. Использование геосинтетических материалов началось во второй половине 20 века, когда стали разрабатываться новые синтетические полимеры. Геосинтетическими являются материалы, в которых как минимум одна из составных частей изготовлена из синтетических или натуральных полимеров в виде нитей, плоских форм, ленточных или трехмерных структур.

Специалисты активно проводили научные исследования в отраслевых научно-исследовательских институтах и на предприятиях, благодаря чему производство геосинтетиков стало развиваться крайне активно. С тех пор технологии производства и применения геосинтетиков значительно эволюционировали, что позволило расширить их использование в различных областях строительства, включая железнодорожное строительство.

Установка в сейсмоактивных зонах датчиков землетрясений, передающих сигнал на остановку поездов. При анализе европейской высокоскоростной железнодорожной транспортной системы установлено, что: Значительные масштабы потенциального рынка высокоскоростных перевозок были подтверждены исследованиями Международного Союза Железных Дорог и Европейским Союзом. В ближайшие годы железные дороги, осуществляющие высокоскоростные перевозки, могут увеличить объем перевозок до 100 млрд. пассажиро-км в год. Это соответствует росту на 53 %, из которых 73 % приходится на переход объема от автотранспорта и воздушных линий. Объем деловых поездок возрастет с 31 до 63 млн. пассажиро-км, а частных — 157 до 223 млн. пассажиро-км. Доля железных дорог на рынке дальних пассажирских перевозок в Западной Европе (в пассажиро-км) возрастет с 15,2 до 22,6 %. На высокоскоростные поезда будет приходиться 60,5 % всего объема дальних железнодорожных перевозок (3).

Определение масштабов развития высокоскоростной сети должно проводиться с учетом реальных условий. Для создания сети высокоскоростных перевозок должны быть выявлены направления с очень интенсивными транспортными потоками. Высокие капиталовложения в инфраструктуру и подвижной состав часто не могут финансироваться только на основе рыночной окупаемости. В случаях, когда строительство новых линий не оправдано экономически, могут быть реконструированы существующие участки.

В европейских странах существуют значительные различия в объемах скоростных и высокоскоростных перевозок и их долях в общем объеме дальних железнодорожных пассажирских перевозок. Это обусловлено разными уровнями развития национальных сетей.

Динамика изменения емкости рынка в течение ряда лет должна всегда рассматриваться для конкретной стадии развития сети.

Цели железных дорог состоят в развитии дальних перевозок за счет введения новых высокоскоростных поездов, увеличения за счет этого своей доли на рынке пассажирских перевозок и улучшения финансовых результатов деятельности.

Рынок высокоскоростных перевозок определяется, прежде всего, географическими факторами. Общеизвестно, что конкурентоспособные транспортные услуги могут предоставляться при скоростях движения до 300 км/ч на расстояния до 800 км для дневных поездок и на расстояния до 2000 км для ночных поездок. В Европе многие международные маршруты укладываются в эти ограничения.

Высокоскоростное сообщение предъявляет серьезные требования, как к инфраструктуре, организации движения, так и к подвижному составу. Для высокоскоростного движения в кривых целесообразно использование подвижного состава нового поколения с наклоняемым кузовом. При выборе подвижного состава приходится искать компромисс между эксплуатационными ограничениями и возможностями, с одной стороны, и желаниями клиентов — с другой. Для пассажира, прежде всего, важны внутренний дизайн вагона и личный комфорт.

В основу технических параметров европейских скоростных железных дорог легли параметры, принятые при проектировании японских высокоскоростных железных дорог. На линии Токайдо для обеспечения максимальной расчетной скорости 210 км/ч был определен минимальный радиус кривых 2500 м, впоследствии увеличенный на следующей высокоскоростной линии Санъё до 4000 м. Такой же минимальный радиус кривых позже принят и на первых французских железнодорожных линиях ВСД. Величина предельного продольного уклона была назначена равной 15 ‰. В целях обеспечения плавности движения радиус вертикальных сопрягающих кривых установлен равным 10 тыс. м. В путь на щебеночном балласте на железобетонные шпалы укладывались длинномерные (850 - 1500 м) рельсовые плети бесстыкового пути. Использовались стрелочные переводы с крестовинами с подвижным сердечником и непрерывной поверхностью катания. Для обеспечения безопасности движения было обустроено сплошное ограждение полосы отвода. Все пересечения с другими транспортными коммуникациями: железными и автомобильными дорогами, пешеходными переходами и т. п. выполнены только в разных уровнях. Магистраль была оснащена системой автоблокировки без напольных проходных светофоров и многозначной локомотивной сигнализацией с автостопом и контролем скорости.

В рамках реализации проекта транс-европейской высокоскоростной железнодорожной сети (TEN) была разработана и утверждена единая техническая спецификация совместимости высокоскоростного подвижного состава (TSI).

В Европе RNE (ассоциация, которую учредили владельцы европейской железнодорожной инфраструктуры) и другими организациями разрабатывается единый комплекс правовых и коммерческих законоположений, которые обеспечат компаниям-операторам передвижение в пределах Европы с максимальной свободой.

Для достижения цели полного использования потенциала европейских железных дорог реально предположение, что следующим шагом реформы станет разработка единого законодательства об инфраструктуре на базе уже существующих.

Национальное общество железных дорог Франции (SNCF) накопило опыт обслуживания инфраструктуры сети высокоскоростных линий. Первую линию проектировали только под

пассажирское движение. Конструкция пути и ее элементы были подобны проверенным на обычных линиях, поэтому использовали принятые методы и принципы системы текущего обслуживания и ремонта, но с учетом высоких требований к скорости и комфорту. Путевые работы выполняются главным образом в ночное время, когда движение пассажирских поездов прекращается на 6 часов. Эффективность и экономичность этой системы зависят от разных факторов: конструкции пути, качества и надежности его элементов, адаптируемости к новым требованиям, регулярности и четкости выполнения технологии.

Особенностью высокоскоростных линий железных дорог Германии является смешанное грузопассажирское движение с вытекающей из характера эксплуатации проблемой отсутствия продолжительных окон. Программа содержания пути определяет перечень различных измерений и инспекционных поездок, их частоту, скорость движения измерительного поезда, уточняет для разных технологических операций продолжительность выделяемых окон (например, обычный ночной интервал с 3 ч 30 мин в выходные дни увеличен до 6 ч благодаря отсутствию грузового движения). Система текущего содержания включает комплексы мероприятий по осмотру и идентификации дефектов, ликвидации неисправностей и возобновлению движения поездов. Выправка пути на LGV должна быть более точной, чем на обычных линиях, и поэтому гравийный балласт укладывается на большую глубину: это позволяет повысить нагрузку на рельсы и стабильность пути. Кроме того, на трассах LGV более часто уложены шпалы. Здесь используются только железобетонные шпалы (моноблочной конструкции), но в последнее время часто применяются шпалы из двух бетонных блоков, соединённых стальным брусом. На шпалы кладутся рельсы тяжёлого типа с большей вертикальной жёсткостью. На линиях LGV используется бесстыковой путь, что уменьшает вибрацию и шум.

Федеральные железные дороги Германии сформулировали технические требования к поезду с максимальной скоростью 250 км/ч. Данный подвижной состав состоит из двух моторных (без мест для пассажиров) концевых вагонов и 14 прицепных промежуточных вагонов с примерно 600 местами для пассажиров.

В Испании содержанием высокоскоростной линии Мадрид – Севилья ведает специальная служба отделения дирекции инфраструктуры. Окна обычно выделяются в ночные часы. Визуальный осмотр пути из кабины машиниста выполняется раз в неделю. Каждые 3 недели измеряют вертикальные и горизонтальные ускорения с помощью специального вагона, прицепляемого к поезду AVE. Один или два раза в год выполняется ультразвуковая дефектоскопия рельсов. Осматривают рельсовые скрепления и шпалы. На пересечениях путей дефектоскопия проводится в полуавтоматическом режиме. Наконец, состояние искусственных сооружений (мостов и тоннелей) проверяется раз в 2 года. После 7 лет эксплуатации не выявлено признаков начала старения инфраструктуры, обусловленного движением высокоскоростных поездов. Износ рельсов незначителен. Точность выполнения графика движения пассажирских поездов не в последнюю очередь зависит от состояния инфраструктуры и пути в том числе. Интенсивная система содержания высокоскоростной линии Мадрид – Севилья способствовала выполнению задания по пунктуальности сообщений: опоздание поезда AVE не должно превышать 5 мин.

Выводы: Анализ мирового опыта и международных требований, предъявляемых к скоростным и высокоскоростным магистралям, позволил ведущим специалистам Республики Узбекистан в области железнодорожного транспорта разработать и внедрить нормативную

базу для проектирования, строительства и эксплуатации скоростных и высокоскоростных магистралей АО «Узбекистон темир йуллари».

Литература:

1. «Концепции стратегического развития железно дорожного транспорта государств-участников СНГ до 2020 года» от 18.10.2011 г., Санкт-петербург, 2011.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 27.07.2015 г. №ПП-2376 «О мерах по реализации проекта «Строительство железнодорожной линии Навои-Канимех-Мискен»», Ташкент, 2015.
3. Директива Европейского Союза 96/48/ЕС «On the interoperability of the trans-European high-speed rail system» («О совместимости трансъевропейской высокоскоростной железнодорожной системы») от 23 .07. 1996 г.
4. ВСН 448-Н «Инфраструктура высокоскоростной железнодорожной линии Ташкент – Самарканд. Общие технические требования», Ташкент, 2010.
5. Высокоскоростной железнодорожный транспорт. Общий курс: учебное пособие: в 2 т. / И.П. Киселёв и др.: под ред. И.П. Киселёва. – М.: ФГБОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2014.
6. Правила технической эксплуатации железных дорог Республики Узбекистан. Ташкент, 2012.
7. Инструкция по устройству, укладке, содержанию и ремонту бесстыкового пути. №№2788р от 29 декабря 2012 г., Москва, 2012.
8. ТУ 0921-195 оп-01124323-2005. Рельсы железнодорожные типа Р65 для высокоскоростного пассажирского движения. Технические условия., Москва, 2005.
9. Овчинников А.Н., Расулев А.Ф., Фазылова З.Т. Вопросы организации высокоскоростного движения на ГАЖК «Узбекистон темир йуллари». РОАТ, Москва, 2012.
10. Овчинников А.Н., Расулев А.Ф., Фазылова З.Т. Вопросы применения шпал BF70 на высокоскоростных участках. Москва, МИИТ, 2012.
11. Овчинников А.Н., Расулев А.Ф., Фазылова З.Т.Скоростное и высокоскоростное движение на железных дорогах Узбекистана. Журнал «Путь и путевое хозяйство» №5, Москва, 2012.
12. Determination of energy constants of materials and their critical masses during crushing of solids Purtseladze, I., Makhmaisaev, A.E3S Web of Conferences, 2023, 460, 0700513.System for determining state of continuous welded track
13. Khalfin, G.-A., Umarov, K., Purtseladze, I., Yembergenov, M. E3S Web of Conferences, 2023, 401, 020501

O‘ZBEKISTON TEZYURAR VA YUQORI TEZLIKLI TEMIR YO‘LLARI TARMOG‘INING ZAMONAVIY TEXNIK HOLATINI TAHLILI

Choriyev Rustam Alisher o‘g‘li, Umarov Xasan Kobilovich (ilmiy rahbar)

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tezyurar va yuqori tezlikli temir yo‘llari tarmog‘ining zamonaviy texnik holatini tahlili keltirilgan. O‘zbekiston temir yo‘llari yo‘lovchi temir yo‘l transportini rivojlantirish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishga katta e’tibor berishda yo‘lni texnik holatini yaxshilash bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *tezyurar, yuqori tezlikli temir yo‘l, texnik holat, Talgo-250*

Abstract: The article provides an analysis of the current technical condition of the high-speed and high-speed railway network of Uzbekistan. Uzbekistan Railways pays great attention to the development of passenger railway transport and improving the level of passenger service, improving the technical condition of the track.

Key words: *high-speed railway, technical condition, Talgo-250*

2004-yilda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan Toshkent – Samarqand yo‘nalishi bo‘yicha birinchi Registon tezyurar poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Registon tezyurar poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilishi yo‘lovchilarning sayohat vaqti 5,5 soatdan 3,5 soatgacha qisqartirdi, bu esa Registon tezyurar poyezdi xizmat ko‘rsatish sifati va darajasi bo‘yicha namuna bo‘ldi. Erishilgan natija Registon tezyurar poyezdining yuqori iste’mol muvaffaqiyatini hisobga olgan holda 2006-yildan Sharq tezyurar poyezdi Toshkent – Buxoro yo‘nalishida, 2008-yildan esa Nasaf tezyurar poyezdi Toshkent – Qarshi yo‘nalishida qatnovi yo‘lga qo‘yildi [1-4].

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 5-yanvardagi PQ-1255-sonli “Yuqori tezlikda harakatlanuvchi *Talgo*-250 yo‘lovchi elektropoyezdlarini sotib olish” qaroriga asosan Toshkent – Samarqand temir yo‘l liniyasi uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo‘lovchi poyezdlarining harakatini tashkil etildi.

O‘zbekistonda tezyurar va yuqori tezlikdagi temir yo‘llarni rivojlantirishda Ispaniyaning *Talgo* kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Talgo Pendular poyezdlari ko‘plab mamlakatlarda ishlatiladi. *Talgo* poyezdi egiluvchan kuzovli vagonlardan tashkil topgan, yengillashtirilgan konstruksiyaga va bir o‘qli aravachalar asosidagi yurish qismiga ega bo‘lib, g‘ildirak juftliklari egriliklarda radial o‘rnatilgan. Bu esa yurishning ravonligini, g‘ildiraklar va relslarning kam yeyilishini ta’minlaydi. *Talgo* poyezdlari ishlashga tayyorligi 99,98% ga yetishi bilan o‘zini ijobiy tomondan ko‘rsatgan. *Talgo* poyezdlarda qo‘llaniladigan kuzov qiyaligi tizimi yuqori ishonchliligi va tuzilishining soddaligi bilan ajralib turadi.

1980 yildan vagon kuzovlarini qiyshaytirish tizimi bilan jihozlangan *Talgo Pendular* seriyasidagi qo‘shma poyezdlardan foydalanish boshlangan. Shu davgacha 1340 ta vagon dunyoning to‘qqizta mamlakatida Ispaniya, Germaniya, AQSH, Kanada, Fransiya, Shveytsariya, Italiya, Portugaliya va Qozog‘istonda keng foydalanib kelinmoqda.

Talgo poyezdlari bo‘g‘imli tuzilishga ega bo‘lib, unda har ikki qo‘shni vagonning uchlari egriliklarda radial o‘rnatilgan bir o‘qli aravachaga tayanadi. An’anaviy motorvagon poyezdlari bilan taqqoslaganda, bu yerda o‘qlar soni deyarli ikki baravar kamaygan, bu tabiiy ravishda texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlarining kamayishiga olib kelgan (1.3-rasm).

Talgo poyezdlari quyidagi afzalliklarga ega hisoblanadi:

- yengil konstruksiyali (ikkinchi klass vagonida bir o‘rinda 310 kggacha);
- yo‘lovchilar kirishi va chiqishi uchun maqbul sharoitlarni ta’minlaydigan vagonlarning

butun maydonida pol sathi pasaytirilgan. Temir yo‘l izining rels kallagi sathidan 760 mm balandlikda qilib loyihalangan.

- past darajadagi shovqin.

Mavjud liniyalarda tezyurar poyezdlarni harakatini tashkillashtirish imkoniyatini belgilovchi asosiy omillar egriliklarning mavjudligi, tashqi relsning ko‘tarilish kattaligi bo‘lib, ular o‘tkaziladigan yuk va yo‘lovchi poyezdlari sonining nisbatiga, shuningdek, yuk poyezdlari tomonidan yo‘lning buzilish intensivligiga bog‘liq.

Tezyurar yo‘lovchi poyezdlarining xavfsizligi va qulayligidan kelib chiqib temir yo‘l izi geometriyasini yaxshilashni talab qiladi, bu esa o‘z vaqtida remont ishlarini amalga oshirish orqali ta’minlanishi kerak. Tezyurar poyezdlarni o‘tkazish shartlaridan biri yo‘lning tuzilishi va saqlanishi bo‘yicha yetarlicha qat’iy me’yorlarga rioya qilishdir. Temir yo‘lning geometriyasi asosan to‘rtta xususiyat bilan belgilanadi [5-7]:

- koleya kengligi;
- rels ip to‘rlarining balandliklari farqi;
- relslarning tarhdagi holati;
- relslarning profilda joylashishi.

Poyezdlar harakati xavfsizligini ta’minlash uchun temir yo‘l izi parametrlari va uni saqlashga qo‘yiladigan talablar tezyurar va yuk poyezdlarining belgilangan harakat tezligiga qarab me’yorlanadi.

Relslar. Uzunligi 25 m bo‘lgan standart relslardan elektrokontakt usulida payvandlangan, termik mustahkamlangan yangi turdagi relslar uzunligi 800 m bo‘lgan pletlardan foydalanish kerak. Pletlar joylashtirilgandan so‘ng, blok-uchastka bo‘ylab plet-shpal to‘qimalar tenglashtiruvchi asboblarsiz o‘zaro juftlashtiriladi, avtoblokirovkasi bilan jihozlangan peregonlarda esa butun peregon (yoki bir nechta peregon, shu jumladan strelkali o‘tkazgichlar) davomida payvandlash amalga oshiriladi.

Shpallar. Epyurasi 1840 dona/km bo‘lgan oldindan zo‘riqtirilgan temir-beton shpallar radiusi 1200 m dan ortiq bo‘lgan to‘g‘ri va egriliklarda, kichikroq radiuslarda esa 2000 dona/km da yotqiziladi. Yo‘l qayta qurilgunga qadar quyidagilarni saqlashga epyurasi 1840 dona/km ruxsat etiladi.

Skrepleniya. Elastik klemmali alohida oraliq skrepleniyalari qo‘llaniladi. Qattiq klemmali KB skrepleniyalarni qo‘llashga ruxsat etiladi.

Ballast. Yo‘lda va strelkali o‘tkazgichlarda qalinligi kamida 40 sm bo‘lgan shag‘al qatlami (25-60 mm fraksiyali, GOST 7392-85 bo‘yicha I-20 markali) yotqiziladi, shag‘al-yostiq ostiga qalinligi kamida 15 sm bo‘lgan qum-shag‘al aralashmasi yoki 5-25 mm fraksiyali shag‘al yotqiziladi. Yostiq o‘rniga eski ballast yoki polimer materiallardan qilingan himoya qatlami ishlatilishi mumkin. Ballast prizmaning yelkasi 45 sm dan kam bo‘lmasligi, yonbag‘irlarning yotqizilishi esa 1:1,5 dan tik bo‘lmasligi kerak.

Strelkali o‘tkazgichlar R65 relslaridan tayyorlanadi, krestovinalar markasining M1/11, egiluvchan o‘tkir uchli, krestovinalarda uzluksiz sirpanish yuzasiga ega bo‘lishi lozim. Strelkali o‘tkazgichlardagi barcha relslar termik mustahkamlangan bo‘lishi kerak. Strelkali o‘tkazgichlar uchliklar va o‘zaklarning tashqi tutashtirgichlari, shuningdek, qordan va muzdan tozalash uchun statsionar qurilmalar bilan jihozlanishi lozim.

Yuqori tezlikdagi temir yo‘l izini joriy saqlashda ko‘rik va tekshiruvga qo‘yiladigan talablar. Yuqori harakat tezliklarida yo‘l holatini tekshirish va ko‘zdan kechirishga yuqori talablar

qo‘yiladi, ular quyidagicha amalga oshiriladi:

- yo‘l o‘lchagich-vagonlar bilan bir oyda kamida ikki marta ko‘rikdan o‘tkazish;
- bir oyda kamida bir marta defektoskop vagonlari, avtomotrisa-defektoskoplar yoki oyiga kamida ikki marta olinadigan doimiy nazorat defektoskoplari bilan tekshiruvdan o‘tkazish;
- defektoskoplar yordamida va yo‘lning payvandlangan stiklarining butun kesimi bo‘ylab yiliga kamida bir marta ko‘zdan kechirib chiqiladi.

Ekspluatatsiyada relslarning keltirilgan yeyilishi 8 mm gacha, yonlama yeyilishi 6 mm gacha, stiklardagi rels kallagining vertikal sathlar farqi 1 mm gacha, rels uchlarining osilib qolishi, shu jumladan ezilishi 1,5 mm gacha bo‘lishi mumkin.

Strelkali o‘tkazgichlarni saqlashga qo‘yiladigan talablar ham qat’iylashtirilgan: ramali relslari va uchliklarning vertikal va yonlama yeyilishi, shuningdek o‘zaklar va mo‘ylovli relslarning yeyilishi 5 mm dan oshmasligi kerak.

Yo‘l o‘lchov vagoni koleyaning torayish bo‘yicha - 8 mm, kengayish bo‘yicha - 16 mm, rels sathi bo‘yicha - 20 mm, perekos bo‘yicha - 16 mm, cho‘kish bo‘yicha - 18 mm va egriliklardagi egilish o‘qlarining farqi - 25 mm dan ortiq chekinishlarni aniqlasa, poyezdlarning harakat tezligi cheklanishi lozim.

Stansiyalar. Temir yo‘l liniyalarini yuqori tezlikdagi harakatga tayyorlashda eng katta kapital xarajatlar stansiyalarni rekonstruksiya qilish va asosiy yo‘llarni qayta qurishga to‘g‘ri keladi. Chunki ikki izli liniyalar yo‘llari tarhidagi ko‘pchilik egriliklar, birinchi navbatda, bu egriliklar radiuslari va o‘tish egriliklari parametrlarining yetarli emasligi sababli 140-160 km/soat tezliklar uchun me’yorlarni qondirmaydi va poyezdning ushbu egriliklar bo‘ylab harakatlanish tezligini pasaytirishni talab qiladi. Tezlikni cheklash uchastkasining uzunligi 1,5-2,0 km bo‘lganda tezlikni 200 km/soat dan pasaytirishdagi vaqt yo‘qotishlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Vaqt yo‘qotishlari

Tezlik, *km/soat*	100	120	140	160	180	200
Vaqt Δt, *soat*	1,515	1,001	0,658	0,375	0,163	0

Agar egrilik radiusini oshirish katta hajmdagi ishlarni keltirib chiqarsa, ko‘ndalang so‘nuvchi tezlanishni 0,7 dan 1,0 m^2/sek gacha (me’yorlarga muvofiq) oshirish va tashqi rels balandligini 15-20% ga ko‘tarish mumkin.

Xulosalar

Temir yo‘l izini yuqori tezlikda harakatlanishga tayyorlashda yo‘lni rivojlantirish bilan alohida punktlarni qayta qurish eng katta qiyinchilik tug‘diradi va bu qayta qurishning narxi yo‘lni rekonstruksiya qilish xarajatlarining katta qismini tashkil etadi. Stansiyada tezyurar poyezdlar harakatlanayotganda bir qator shartlarga javob berishi kerak. Alohida punktlar chegarasidagi bosh yo‘llar tarhi egriliklar radiuslari, tashqi rels balandliklari, o‘tish egrilik uzunliklari va qo‘shni egriliklar orasidagi to‘g‘ri vstavkalar qismida peregonlardagi kabi talablarga javob berishi kerak.

Stansiyalarning yo‘lovchi qurilmalari yo‘lovchilarning to‘liq xavfsizligini va ular uchun eng yuqori qulaylikni ta’minlashni hisobga olgan holda loyihalashtirilishi kerak. Shu maqsadda yo‘lovchi platformalarini magistral yo‘llarning tashqi tomoniga joylashtirish zarur. Platformaning kengligi poyezddan oldin hosil bo‘ladigan havo to‘lqinining ta’sirini va maksimal tezlikda o‘tishda orqa vagon ortidagi turbulentlikni hamda undagi inshootlarning joylashuvini (piyodalar ko‘prigidan chiqish yoki tunnelga kirish joylarini) hisobga olgan holda belgilanadi. Stansiya yo‘llari orqali piyodalar o‘tish joylari turli darajada va iloji boricha tunnellar yordamida qurilishi kerak. Bundan tashqari, 140

km/soatdan ortiq tezlikda stansiyalarda elektr markazlashtirish, asosiy yo‘llar ustidagi aloqa tarmog‘i modernizatsiya qilinishi va stansiya hududi yaxlit to‘siq bilan o‘ralishi kerak. Stansiya va quvib o‘tish punktlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha asosiy ishlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov K. et al. Mathematical model for prediction of cargo flow during the construction of the railway line Uzbekistan-Kyrgyzstan–China //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 401. – C. 03018. DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340103018;

2. Umarov Khasan, Baqoyev Sayfi ASSESSMENT OF DECISION-MAKING AT SUBSTANTIATING THE STRENGTHENING OF THE RAILWAY CAPACITY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF UNCERTAINTY AND RISKS // Universum: технические науки. 2023. №6-4 (111);

3. Umarov Xasan, Botirov Otanur ASSESSMENT OF THE DECISION-MAKING IN JUSTIFICATION OF STRENGTHENING THE CAPACITY OF RAILWAYS IN UZBEKISTAN. UNDER CONDITIONS OF UNCERTAINTY AND RISKS //Universum: технические науки. 2022. №5-11 (98);

4. Ozodjonov Javohir, Umarov Khasan, Babayev Askar DECISION MAKING WHEN JUSTIFYING THE STRENGTHENING OF UZBEKISTAN RAILWAYS UNDER CONDITIONS OF UNCERTAINTY OF BACKGROUND INFORMATION // Universum: технические науки. 2023. №6-4 (111);

5. Khalfin G. A. et al. System for determining state of continuous welded track //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 401. – C. 02050. DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340102050;

6. Shayakhmetov S. et al. Seismic stress state of "Earth bed -foundation" system //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 401. – C. 01083. DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340101083;

7. Shayakhmetov S. et al. Rayleigh and love surface waves with regard to seismic stress state of earth bed //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 401. – C. 01077. DOI: DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340101077;

YAPON ADABIYOTIDA MODERNIZMNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

TDSHU Sharq xalqalari tillari va adabiyoti instituti
Yaponshunoslik oliy maktabi o‘qituvchisi
Mamurjonova G.R.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida yapon adabiyotida modernizmning roli va o‘rni, yapon modernistlarining ijodiy kontseptsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, XX asr boshi va o‘rtalarida Yaponiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotini tahlil qilish, Yaponiyada modernizm yo‘nalishining paydo bo‘lishiga olib kelgan milliy hayotning ob’yektiv omillarini tahlil qilish o‘rganiladi.

Yaponiyada modernizmning paydo bo‘lishi ichki va tashqi sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan. Bir tomondan, mamlakatda ishchilar sinfining o‘sishi va ishchilar harakatining ko‘tarilishi bilan birga bo‘lgan kapitalni jamlash jarayoni boshlandi. Ishchi sinfning faollashuvi burjuaziya ziyolilarini qo‘rqitib yubordi, ularda yaqinlashib kelayotgan o‘zgarishlardan qo‘rqib, ertangi kunga nisbatan tartibsizlik va noaniqlik kayfiyatini yaratdi. Bundan tashqari, 1923 yilda Yaponiyada ba’zi ziyolilar doirasida qo‘rquv va tartibsizlikni yanada kuchaytirgan voqea sodir bo‘ldi. Sentabr oyida Tokioning Kanto shahrida zilzila yuz berdi. Poytaxt xarobaga aylandi va olov ichida qurshovga aylandi. Tabiiy ofat qurbonlari soni 150 mingdan oshdi. Reaksion doiralar mamlakatda yuzaga kelgan qiyinchiliklardan, xususan, zilziladan kelib chiqadigan qiyinchiliklardan demokratik harakatni yengish uchun foydalangan. Politsiya tomonidan amalga oshirilgan qatag‘onlar ziyolilarda halokat tuyg‘usini uyg‘otdi, pessimizmning paydo bo‘lishiga, ko‘plab yozuvchilarning tasavvuf olamiga ko‘chib ketishiga, xayolot tomonidan vujudga kelgan boshqa xayoliy dunyoga qarshi turish zarurligini keltirib chiqardi. Aynan o‘sha davrda modernist tipdagi adabiyotga asos bo‘lgan asarlar paydo bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: “Yangi san’at” maktabi, Taiso davri, Meyji restavratsiyasi, XX asr, “Bungeishunjyu” (“Adabiy xronika”) jurnali.

Annotation: This article examines the role and place of modernism in Japanese literature in the early XX century, the definition of the specifics of the creative concept of Japanese modernists, the article also examines the analysis of the socio-political life of Japan at the beginning and middle of the XX century, showing the objective factors of national life that led to the emergence in Japan interest of a part of the creative intelligentsia in the psihology and aesthetics of modernism.

The appearance of modernism in Japan was due to both internal and external causes. On the one hand, the country was undergoing a process of concentration of capital, which was accompanied by the growth of the working class and the rise of the labor movement. The intensified activity of the working class of confusion and uncertainty about tomorrow. In addition, in 1923 an event took place in Japan that further increased fear and confusion among some circles of the intelligentsia. In September, an earthquake struck Kanto in Tokyo. The capital turned into ruins and was enveloped in fires. . The number of victims of the disaster amounted to more than 150 thousand people. The reactionary circles used the difficulties prevailing in the country, in particular those arising from the earthquake, to defeat the democratic movement. Police reprisals with its participants aroused among the intelligentsia a sense of doom, contributed to the emergence of pessimism, the departure of many writers into the realm of mysticism, the need to oppose the world that was denied to reality a different, illusory, generated by fantasy. It was then that the works appeared that laid the foundation for modernist type literature frightened the bourgeois intelligentsia, aroused in it fear of impending changes, and created a mood.

Keywords: school of “New Art”, the Taise period, Meiji restoration, XX century, the magazine “Bungeisyunju” (“Literary Chronicle”)

XX asrning boshlarida Yaponiya adabiyoti va san'atida turli modernistik yo‘nalishlarning tez rivojlanishi kuzatildi. Intelligensiya uchun bu davr izlanishlar va adashishlar davri bo‘ldi. Ba’zi yosh yozuvchilar marksizm g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlab, proletar adabiyotining yaratuvchilariga aylandilar, boshqalari esa G‘arbdan kirib kelgan modernistik oqimlarda – neopsixologizm, formalizm, syurrealizm va boshqalarda o‘zlarini topdilar. Ular an’anaviy yapon naturalistik adabiyotini rad etib, uni "bir xillikka asoslangan" deb atadilar va kuchayib borayotgan proletar adabiyoti ta’siriga qarshi chiqib, "san’at erkinligi va mustaqilligi", "shaxsga hurmat" kabi g‘oyalarni ilgari surdilar. Barcha modernistlar singari, yapon yozuvchilari ham yangi shakllarni izlashga katta ahamiyat berar edilar. O‘sha yillarda juda xilma-xil adabiy oqimlar mavjud edi, biroq modernistik adabiyot proletar adabiyotining asosiy raqibi hisoblanar edi. Bu oqim vakillari – shinkankakuha ("yangi sezgilar oqimi") va shinkogeijutsu-ha ("yangi san’at") deb ikki guruhga bo‘lingan holda – "zamona tashvishlari"ni sezgilar orqali anglash mumkinligini ta’kidlardilar va zamonaviy insoniyat his qilayotgan inqirozni ifodalash yo‘llarini izlashga harakat qildilar.

Yapon militarizmi tor-mor etilib, demokratik islohotlar amalga oshirilmaguncha, 20–30-yillardagi adabiyotni ob’ektiv o‘rganish imkoni bo‘lmagan, chunki o‘sha davrdagi adabiyot hukmron doiralar nazoratida bo‘lgan va adabiyotshunoslik fani ochiqdan-ochiq tarafkashlik xususiyatiga ega edi.

Urushdan keyingi davrda mamlakatdagi siyosiy vaziyat o‘zgardi. Yapon adabiyotshunoslari adabiy merosni, xususan 20–30-yillar adabiyotini yanada ob’ektivroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. Ushbu bobda Yaponiyada modernizmning ba’zi muammolarini yoritishga urinish qilinadi. Buning uchun modernizmning ildizlariga, ya’ni shinkankakuha deb nomlanuvchi adabiy yo‘nalishga murojaat qilish zarur, chunki bu orqali Yaponiyada modernizmning paydo bo‘lish sabablari, uning yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish mumkin bo‘ladi.

Yaponiyada modernizmning paydo bo‘lishi XX asr boshlariga, mamlakat kapitalizmning monopolistik bosqichiga kirgan davrga to‘g‘ri keladi. Birinchi jahon urushidan keyin Yaponiyada inson shaxsiga bo‘lgan munosabat masalasi ayniqsa keskin ko‘tarildi va bu masalada turli adabiy guruhlar va yo‘nalishlarning falsafiy-estetik qarashlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Masalan, proletar adabiyoti insonni o‘z ozodligi uchun ongli kurash olib boruvchi faol shaxs sifatida talqin etardi. Bu Kobayasi Takidzi (1903–1933) ijodida aks etdi, u jamiyatni o‘zgartirish uchun kurashuvchi qahramon obrazini yaratgan. Modernistlarda esa insonni passiv, irodasiz va ojiz mavjudot sifatida talqin qilishga moyillik paydo bo‘ldi, u jamiyat va inson ustida turgan, unga bo‘ysunmaydigan ijtimoiy emas kuchlarning qurboni sifatida tasvirlanar edi. Bu g‘oyalarni ifodalagan yozuvchi Yokomitsu Toshikadzu (Riichi) (1898–1947) bo‘lib, u proletar adabiyotini o‘zining asosiy raqibi deb bilib, unga qarshi "sof adabiyot" bayrog‘i ostida kurash olib bordi.

Yaponiyada modernizmning paydo bo‘lishi ichki hamda tashqi omillar bilan bog‘liq edi. Bir tomondan, mamlakatda kapitalning konsentratsiyalanish jarayoni kechayotgan edi, bu esa ishchi sinfining o‘sishi va ishchilar harakatining kuchayishi bilan birga borardi. Ishchilar sinfining faollashuvi burjuaziya ziyolilarini qo‘rqitdi, ularning orasida kelayotgan o‘zgarishlardan qo‘rquv, kelajakka nisbatan ishonchsizlik va hayratni yuzaga keltirdi. Bundan tashqari, 1923-yilda Yaponiyada ayrim ziyolilar qatlamida qo‘rquv va tushkunlikni yanada kuchaytirgan voqea yuz berdi. Sentabr oyida Kanto (Tokio hududi)da kuchli zilzila sodir bo‘ldi. Poytaxt xarobalarga aylandi, yong‘inlar bilan qoplandi. Tabiiy ofatdan halok bo‘lganlar soni 150 ming kishidan oshdi. Reaksion

doiralar mamlakatda yuzaga kelgan qiyinchiliklardan, xususan zilzila bilan bog‘liq muammolardan foydalanib, demokratik harakatni bostirishga kirishdilar. Politsiyaning harakat ishtirokchilariga nisbatan qilgan zo‘ravonliklari ziyolilar orasida umidsizlik hissini kuchaytirdi, pessimistik kayfiyatlar, mistikaga berilish, real hayotni inkor etgan holda xayoliy, tasavvurga asoslangan bir olamni qarshi qo‘yish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Aynan shu davrda modernistik adabiyotga asos bo‘lgan asarlar paydo bo‘la boshladi.

Ikkinchi tomondan, Birinchi jahon urushidan keyin G‘arbiy Yevropa adabiyoti va san’ati namunalarining kuchli to‘lqini Yaponiyaga kirib keldi. Turli falsafiy yo‘nalishlarga mansub adabiy nazariya va estetika ishlari, proza va poeziya asarlari tarjima qilinib nashr etildi. Turli avangard san’at maktablari katta qiziqish uyg‘otdi. 20-yillarning boshlarida "Kinseido" nashriyoti yigirma jildli “Avangard san’ati kutubxonasi”ni nashr etishni boshladi, bu to‘plamda R. Gering, F.T. Marinetti, L. Pirandello, L. Andreev kabi mualliflarning pyesalari e’lon qilindi. Progresiv Tsukidzi teatrida realizmga mansub dramaturglarning pyesalari bilan bir qatorda avangard dramaturglarning asarlari ham sahnalashtirildi.

20-yillar boshidagi modernizm Birinchi jahon urushidan keyingi Yaponiyadagi inqirozli holatlarning bir qismi, ziyolilarning katta qatlamlari ongidagi inqirozning ifodasi edi. Modernistlar turli mafkuraviy yo‘nalishlarga, san’at va uning jamiyatdagi o‘rniga oid turli qarashlarga ega edilar. Masalan, "Aka to Kuro" (Qizil va Qora) jurnalining shoirlari har qanday yaratuvchanlikni rad etuvchi umumiy vayronagarchilik tarafdori edilar. Aksincha, "Bungeishunjū" (Adabiy solnoma) jurnalida faoliyat yuritgan yozuvchilar – Yokomitsu Toshikadzu, Kawabata Yasunari, Kataoka Teppei va boshqalar – adabiyotga mavjud haqiqat doirasida “hayotni o‘zgartirish vositasi” sifatida qarardilar. Modernistlar orasida adabiyotni xalqqa xizmat qildirish niyatida bo‘lgan, bu orqali keyinchalik tabiiy ravishda ilg‘or adabiy oqimga qo‘shilganlar ham bor edi (Kataoka Teppei va boshqalar). Biroq ko‘plab yozuvchilar san’atning oliy vazifasi haqida so‘z yuritar ekanlar, aslida adabiyotni jamiyatdan ustun qo‘yishga, amalda esa uni hukmron sinflarning manfaatlariga moslashtirishga harakat qildilar. Aynan mana shunday qarashdagi yozuvchilar "shinkankakuha" deb atalgan guruhning yadrosini tashkil etgan edilar.

Yapon adabiyotshunoslari “shinkankakuha” guruhini modernist yozuvchilarning birinchi birlashmasi deb hisoblaydilar. Bunga ushbu guruhning yetakchi vakillarining estetika va adabiyot nazariyasiga oid asosiy asarlarining “Modernizm”, “Proletar adabiyoti, modernistik adabiyot” kabi to‘plamlarga kiritilgani dalil bo‘ladi. Yapon ensiklopediyasida “modernizm”ga ta’rif berilar ekan, Yaponiyada bu atama bilan “shinkankakuha” va “shinkōgeijutsuha” (Taysho davrining oxiri – Syo‘va davrining boshlari[1]) harakatlaridan boshlangan adabiyot va san’atdagi turli oqimlar, shuningdek, yuqorida nomi keltirilgan harakatlarga xos bo‘lgan uslub, shakl va yo‘nalishlar tushunilishi aytilgan.[2]

Yosh modernist yozuvchilarning shakllanishi Kikuchi Hiroshi boshqargan “Bungeishunjū” jurnalida sodir bo‘lgan. Bu davrda hali taniqli bo‘lmagan, ammo keyinchalik “shinkankakuha” guruhiga kirgan yosh yozuvchilar – Yokomitsu Toshikazu (Riichi), Kawabata Yasunari, Ishihama Kinsaku, Kon Toko, Sakai Naohiko, Suzuki Hikojirō, Suzuki Shikyō, Sasaki Mitsuzō, Nakagawa Yoichi, Saitō Tetsutarō va boshqalar – ushbu jurnal sahifalarida o‘z asarlarini chop ettirganlar[3].

[1] Taysho davri (1912-1925),Syova(1926 y.dan hozirgi zamongacha).

[2] Sekaidaihakkadziten» (« entsiklopediya», т. 28, Tokio, 1958

[3] «Nihonbungakusi» («Yapon adabiyoti tarixi»), т. 15, ch. 6, Tokio, 1959, str. 18.

Kikuchi Hiroshi g‘arbiy Yevropa modernistlaridan o‘rganishga intilayotgan yoshlarga homiylik qilgan. Shu bilan birga, jurnal bilan hamkorlik qilgan katta avlod yozuvchilari yosh avlodga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, tanqidchi Sasaki Kiichi Yokomitsu Toshikazuning ijodiga Akutagawa Ryūnosuke, Kikuchi Hiroshi va Satō Haruo ta’siri borligini hozirda hech kim inkor etmaydi, deb hisoblaydi.

Biroq “Bungeishunjū” jurnali atrofida to‘plangan yosh yozuvchilar, Akutagawa Ryūnosuke va Kikuchi Hiroshi ijodiga qoyil qolgan bo‘lsalar-da, ularning qarashlariga to‘liq qo‘shilmaganlar. Akutagawa Ryūnosuke kabi ular ham 1920-yillarning boshlariga kelib boshi berk ko‘chaga kirib qolgan yapon adabiyotini bu qiyin ahvoldan olib chiqish yo‘lini izlardilar. Ular mavjud adabiy normalarni buzish, “yangi adabiyot” yaratishda yo‘lni ko‘rardilar. Biroq Akutagawa Ryūnosuke va Kikuchi Hiroshining ifoda uslublari ularga haddan tashqari an’anaviy tuyulgan. Katta avlod yozuvchilari ularning erkinligini cheklayotganini hisoblab, ular “Bungeishunjū” jurnalidan chiqib ketdilar va 1924-yil oktabr oyida o‘zlarining “Bungei Jidai” (“Adabiy davr”) nomli jurnalini yaratdilar. Yangi jurnalning asosiy yadrosini Yokomitsu Toshikazu, Kataoka Teppei, Kawabata Yasunari va Nakagawa Yoichi tashkil etdi. Bundan tashqari, jurnal bilan Kishida Kunio, Jūichiya Gisaburō, Kamiya Takakazu, Suge Tadao, Inagaki Tokio va boshqa yozuvchilar ham hamkorlik qila boshladilar.

Yuqorida tilga olingan yosh yozuvchilarning ijodida insonning ojizligi mavzusi zilzila fojiasidan so‘ng ayniqsa kuchli yangray boshladi. Bu mavzu haqiqatdan qochishga chaqiriq sifatida talqin qilinib, “Bungei Jidai” jurnalida chop etilgan asarlarda asosiy mavzuga aylandi. Shu bilan birga, Yaponiyada boshqa avangard yo‘nalishdagi davriy nashrlar ham mavjud edi: “Mavo”, “Akushon”, dadaistik jurnallar – “Dam-dam”, “Gem-gem”, “Aka to Kuro”. Ular juda qisqa muddat faoliyat yuritgan bo‘lsalar-da, ularning o‘rtasida katta farq yo‘q edi. Buni, masalan, “Dam-dam” jurnalida chop etilgan deyarli barcha shoirlar o‘z she’rlarini “Aka to Kuro” jurnaliga ham yuborganlari dalillaydi.

Bunga qarama-qarshi tarzda, “Bungei Jidai” jurnalida har biri o‘ziga xos ijodiy uslubga ega bo‘lgan boshqa yosh yozuvchilarning asarlari chop etilardi. Ular orasida ko‘pincha keskin tortishuvlar yuzaga kelgan, bu esa ba’zan ayrim yozuvchilarning jurnalni tark etishiga olib kelgan. Masalan, Kon Toko jurnalni tark etib, “Shincho” jurnalida “shinkankakuha” guruhiga qarshi keskin maqola e’lon qilgan.

Yaponiyada, xuddi G‘arbda bo‘lgani kabi, avangard adabiyot yagona yo‘nalish bo‘lmagan. Yapon avangardizmi turli estetik platformaga ega bo‘lgan ko‘plab yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan.

Xo‘sh, yapon adabiyoti tarixiga “shinkankakuha” nomi bilan kirgan yo‘nalishni qanday tavsiflash mumkin? Bu borada qiziqarli ta’riflardan birini Kataoka Yoshikazu bergan. Uning fikricha, “shinkankakuha” guruhining estetik asosi – kubizm, futurizm, ekspressionizm va dadaizmning sintezidir. Kataoka Yoshikazu bu guruh yozuvchilarining ijodida mistika ustunlik qilganini, ularning asarlarining bosh mavzusi inson ruhiyatidagi g‘ayritabiiy holatlar, turli xayollar va gallyutsinatsiyalar bo‘lganini qayd etadi. Shu asosda u “shinkankakuha” atamasini ingliz tiliga impressionism[4] deb tarjima qiladi, garchi bizga tanish bo‘lgan yevropa impressionizmi bilan bu yo‘nalishning o‘xshashligi uncha katta bo‘lmasa-da. Aslida esa, Kataoka Yoshikazu “shinkankakuha” yo‘nalishiga yozuvchi Yokomitsu Toshikazu[5] bergan baho bilan rozi bo‘ladi.

[4] «Contemporary Japanese Literature», Tokyo, 1939, XXXVI.

[5] «Gendaibungakurontaikei» (Ser.«Zamonaviy adabiyot teoriyasi»), т. 5, Tokio, 1954, 16 bet.

Agar e’tibor bersak, Yokomitsu Toshikazu “ma’lum bir realizm” deganda neorealizmni tushungan. Demak, “shinkankakuha” atamasi bilan 1920-yillarda Yaponiyadagi barcha eng yangi no-realistik yo‘nalishlar, ya’ni an’analarni inkor etgan san’at oqimlari nazarda tutilgan. Biroq yuqorida keltirilgan ikkala ta’rif ham “shinkankakuha” guruhining o‘ziga xosligini to‘liq ochib bera olmaydi. Ularning ikkalasida ham guruhning ijtimoiy yo‘nalishi, realizmga bo‘lgan munosabati kabi muhim jihatlar yetishmaydi.

Yokomitsu Toshikazuning ta’rifi, ayni paytda, uning barcha no-realistik yo‘nalishlarni yagona safga birlashtirish istagini, shuningdek, ularning yetakchisi bo‘lishga da’vogarligini ham aks ettiradi. Guruhda Yokomitsu Toshikazuni “adabiyot xudosi” deb atashgan, u esa o‘z qarashlarini hayotga tatbiq etish uchun o‘z ta’siridan foydalanishga harakat qilgan. U bilan kelisha olmaganlar esa jurnalni tark etishga majbur bo‘lgan. Biroq “Bungei Jidai” jurnalidagi haqiqiy muhit Yokomitsu Toshikazuning tasavvuriga mos kelmagan: jurnal xodimlarining aksariyati adabiyotga boshqa qarashda bo‘lgan va Toshikazu hamda uning yaqin doirasining ta’siriga qarshi o‘z pozitsiyalarini qat’iy himoya qilganlar.

"Shinkankakuha" yozuvchilarining estetik qarashlari ham ijodiy amaliyot jarayonida, ham Yevropa adabiy tafakkurining ta’siri ostida shakllangan. Yapon tadqiqotchilari ta’kidlashicha, ushbu guruh ijodiga F.M. Dostoyevskiy, A. Jid, G. Flaubert, L. Shestov kabi yozuvchilarning ta’siri bo‘lgan. Bundan tashqari, Yokomitsu Toshikazu tomonidan modernizmning falsafiy asoslariga bag‘ishlab yozilgan asarlar uning Nitsshe ijodi bilan tanish bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ba’zi hollarda yevropalik yozuvchilarning ta’siri syujetlar o‘zlashtirilishida yoki bevosita taqlidda ko‘zga tashlangan bo‘lsa, boshqa hollarda bu ta’sir dunyoqarash ifodasi, inson va adabiy qahramon talqinida namoyon bo‘lgan; yana boshqalarda – til va badiiy shakllarda namoyon bo‘lgan. Yapon modernistlari milliy adabiyot merosidan, xususan, Akutagawa Ryūnosuke ijodidan ham foydalanganlar.

Biroq bizningcha, Akutagawa Ryūnosuke’ning "shinkankakuha" guruhiga, ayniqsa Yokomitsu Toshikazuga ta’siri asosan badiiy forma sohasida bo‘lgan. Akutagawa uchun adabiyot – hayotni anglash vositasi edi va shakl mazmunga bo‘ysunardi. Biroq Yokomitsu Toshikazu ijodida shakl o‘z-o‘ziga yetarli, mustaqil ahamiyat kasb etgan. Uning asarlarida inson psixikasidagi patologik og‘ishlar tasvirning asosiy mavzularidan biriga aylangan.

Yokomitsu Toshikazu o‘zini “amaliy yozuvchi” deb hisoblagan, adabiyot nazariyasini esa nazariyotchilarning ishi deb bilgan. U adabiyot nazariyasiga oid maqolalarni ko‘p yozmagan bo‘lsa-da, uning hikoya, qissa va romanlarining tahlili har birining "shinkankakuha" nazariy muammolariga amaliy hissa bo‘lganini ko‘rsatadi. Ya’ni, u yozgan nazariy maqolalar "shinkankakuha" xarakterini tushunishda muhim bo‘lsa-da, bu adabiy yo‘nalishning to‘liq estetik va nazariy pozitsiyalarini aks ettirmaydi. "Shinkankakuha" yozuvchilarining ko‘plab adabiy muammolarga bo‘lgan qarashlarini faqat ularning badiiy asarlari asosida tushunish mumkin.

"Shinkankakuha" yo‘nalishining asosiy nazariyotchisi deb Kataoka Teppei tanilgan. Uning “Yosh o‘quvchiga murojaat”, “Yangi davr shunday e’lon qilinadi”, “Axloq va sezgilar” kabi maqolalarida "shinkankakuha" estetik asoslari bayon etilgan. Bu maqolalar Yokomitsu Toshikazuning “Sezgilar harakati”, Chiba Kameoning “Neosensualizm” va “Neosensualizm maktabining tug‘ilishi” [6]maqolalari bilan to‘ldirilgan. Guruhning adabiyotga va uning jamiyatdagi

[6] «Bungeidzidai», 1924, т. 2, №7.

o‘rniga bo‘lgan qarashlari “Bungei Jidai”[7] jurnali tashkil etilgan paytdagi tahririyat murojaatida ham o‘z aksini topgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Yokomitsu Toshikazu “sof adabiyot” g‘oyalarini himoya qilgan, bu atama ostida u adabiyotning ma’naviy ifodaviy tomonlarini tushungan. Garchi Yokomitsu bu haqda bevosita aniq bayonot bermagan bo‘lsa-da, bu uning uchun adabiyot mazmunsiz degani emas edi. "Sof adabiyot"ning mazmuni, Yokomitsu fikricha, “kankaku” – ya’ni “sezgilar”dir. U bu tushunchani inson ongida harakatlanadigan substansiya sifatida talqin etadi. Ba’zi hollarda bu “sezgilar” uning asarlarida emotsiyalarga yaqin bo‘ladi, yoki “shinjidai-no kankakuka” – “yangi davrni his etish/vosita bilan anglash” degan iborada ifodalanadi.

Yokomitsu Toshikazu nazarida yozuvchining vazifasi — aynan shu “sezgilar”ni konstruksiyalash, ularni yaratishdir. Buning vositasi esa – so‘zlar, ritm, poeziya. Ya’ni, bu nazariyaga ko‘ra, adabiyot bu – yozuvchi tomonidan leksik, sintaktik va boshqa ifoda vositalari yordamida yaratilgan emotsional haqiqatdir, u ob’ektiv borliq bilan bevosita bog‘liq emas.

Bunday qarashning negizida Yokomitsu Toshikazuning subyektiv-idealistik yondashuvi yotadi – ya’ni falsafaning asosiy masalasi bo‘lgan moddi va ong o‘rtasidagi munosabatda u ongni birlamchi, tashqi haqiqatni esa ikkinchi darajali deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, inson faqat sezgilar orqali olamni anglaydi, bu sezgilar esa tashqi haqiqatdan mustaqil emas, balki u bilan birdir. Bu jihatdan, sezgi vositasi bilan olingan taassurot narsa haqidagi bilimning o‘zi hisoblanadi.

Yokomitsu Toshikazu “sezgi”ni “sof obyekt” yoki “g‘oya” deb atagan, u inson tafakkuriga ta’sir qiladi. U shuningdek, turli odamlarning idroki bir-biriga o‘xshamasligini, bu esa asosan inson asab tizimining xususiyatlariga bog‘liqligini eslatib o‘tadi va bu fikrlar asosida haqiqatning bilib bo‘lmasligi g‘oyasini ilgari suradi. U shunday deydi: “Sezgilar dalilga muhtoj emas va ular bilib bo‘lmaydi.”

Shu tarzda, Yokomitsu tashqi olam va uning idrokini tenglashtirar ekan, insonni o‘rab turgan haqiqatni emas, balki shu haqiqat haqidagi sezgini ham bilib bo‘lmas deb e’lon qiladi.

"Shinkankakuha" badiiy uslubini tavsiflash uchun Yokomitsu Toshikazu "yangi sezgi" (shinkankaku) tushunchasini kiritadi, bu atamani u "sezgi" (kankaku) tushunchasi bilan bir qatorda qo‘llaydi. "Yangi sezgilar",[8] Yokomitsuning nazariy qarashlarida, "sezgilar"ga qanday munosabatda bo‘lsa, "yangi davr" (ya’ni "shinkankakuha" yozuvchilari yashayotgan va aks ettirayotgan davr) — "davr"ga (ya’ni avvalgi, an’anaviy yozuvchilar tasvirlagan davrga) shunday munosabatdadir.

Agar an’anaviy adabiyot "davr sezgisi" (jidai no kankaku) bilan ishlasa, unda "yangi adabiyot" (Yokomitsu Toshikazu "shinkankakuha" yozuvchilari yaratgan adabiyotga shu nomni bergan) — "yangi davr sezgisi" (shinjidai no kankaku) yoki "yangi sezgilar" (shinkankaku) bilan ishlaydi.[9]

"Davr sezgisi" bilan "yangi davr sezgisi" o‘rtasidagi farq haqida so‘z ketganda, bu yerda ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari haqidagi aniq tushunchalarning o‘rniga psixologik xususiyatlarga asoslangan mavhum tushunchalar bilan almashtirish holati ko‘zga tashlanadi.[10] Ya’ni,

[7] «Bungeidzidai», 1925, т. 3, №9.

[8] «Sintyo», avgust 1925.

[9] «Bungeinihon», aprel 1925.

[10] «Bungeidzidai», 1924, №11.

"shinkankakuha" oqimining ayrim vakillari, xususan Yokomitsu Toshikazu ijodida kuzatiladigan zamonaviy davrni inkor etish, aslida kapitalistik munosabatlarni yoki burjua davlatini rad etish degani emas edi.

Boshqacha aytganda, bu yozuvchilar jamiyat tuzilmasi yoki siyosiy tizimni tanqid qilmagan, ular o‘zlarini ko‘proq sub’yektiv idrok, sezgi, individual his etish shakllari orqali ifoda etgan. Shu tariqa, ularning "yangi adabiyot" g‘oyasi ko‘proq badiiy shakl, sezgilar tili va individual ruhiy tajribaga asoslangan bo‘lib, an’anaviy mazmunli, ijtimoiy yo‘naltirilgan adabiyotdan keskin farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. “Gendaibungakukodza” (“Materiali po sovremennoy yaponskoy literature”) , T.6, Tokio 1962 .
2. “Nihonbungakusi” (“Istoriya yaponskoy literature”), T.15, Tokio 1959.
3. Breslaves T.I. “Literatura modernizma v Yaponii”. Vladivostok: Dalnauka, 2007.
4. Grigoryeva T.P. “Yaponskaya literatura XX veka”.-Moskva Xudojestvennaya literatura, 1983.
5. http://jti.lib.virginia.edu/japanese(Japanese Text Initiative)
6. Logunova V.V. “Pisateli i vremya. Realizm i modernism v yaponskoy literature”.-Moskva Nauka, 1961.
7. Moshnyaga P.A. Yaponskaya literature 1920-30x godov: stanovleniye i razvitiye shkoli “Novogo iskusstva” //Elektronniy jurnal “Znaniye. Ponimaniye.Umeniye”. №5 Filologiya 2008.
8. Rexo K. “Sovremenniy yaponskiy roman” Moskva Nauka, 1977.
9. Ueda Makoto, Modern Japanese Writers and the Nature of Literature. Standford: Standford University Press 1976. 294 p.

Internet resurslar:

1. https://www.jstor.org/stable/488942
2. https://www.nippon.com/en/japan-topics/b07218/
3. https://www.nippon.com/en/japan-topics/b07226/

TO‘SINLI TEMIRBETON ORALIQ QURILMALARINING YUK KO‘TARISH QOBILIYATINI OSHIRISH USULLARI

Ilmiy rahbari:t.f.n., professor Salixanov Saidxan Salixanovich
Magistrant :Azamjonov Ro‘ziboy Saydmurodjon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya

Maqolada avtomobil yo‘llaridagi ekspluatatsiya davridagi temirbeton ko‘priklar oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullari ko‘rib chiqiladi. Ko‘priklarning zamonaviy yuk tashish talablariga javob berishi va ularni uzoq muddatli ekspluatatsiya sharoitida saqlab turish zarurati asoslangan. Dunyo olimlarining bu boradagi yondashuvlari va nazariyalariga tayanib, konstruktiv kuchaytirish metodlari, materiallar sifati va rekonstruksiya usullari tahlil qilinadi. Mavjud usullarning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, kompozit materiallardan foydalanishning samaradorligi baholanadi. Maqola ekspluatatsiyadagi ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning resurs tejamkor usullarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Temirbeton ko‘priklar, oraliq qurilmalar, yuk ko‘tarish qobiliyati, kuchaytirish usullari, rekonstruksiya, materiallar sifati, kompozit materiallar, monitoring, resurs tejamkorlik

Annotation

The article considers methods for increasing the load-bearing capacity of reinforced concrete bridges during operation on highways. The basis is the need for bridges to meet modern load-bearing requirements and maintain them in long-term operation. Based on the approaches and theories of world scientists in this regard, structural strengthening methods, material quality and reconstruction methods are analyzed. The advantages and disadvantages of existing methods are assessed, as well as the effectiveness of the use of composite materials. The article is aimed at identifying resource-saving methods for increasing the load-bearing capacity of bridges in operation.

Key words: Reinforced concrete bridges, intermediate structures, load-bearing capacity, strengthening methods, reconstruction, material quality, composite materials, monitoring, resource efficiency

KIRISH: Avtomobil yo‘llaridagi mavjud temir-beton ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini zamonaviy talablarga moslashtirish va ularni uzoq muddatli ekspluatatsiya qilishni ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Ko‘priklarning oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish, konstruktiv tahlillar, mustahkamlash usullari va ilg‘or materiallardan foydalanish orqali amalga oshiriladi

Avtomobil yo‘llaridagi ekspluatatsiyada bo‘lgan temirbeton ko‘priklarning zamonaviy yuk tashish talablariga javob berishi, shuningdek, ularni normal ekspluatatsiya sharoitlarida uzoq muddat davomida saqlab turish maqsadida, ko‘priklarning oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish zarurati mavjud. Ekspluatatsiyadagi avtomobil yo‘llaridagi temirbeton ko‘priklar va yo‘lo‘tkazgichlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini kuchaytirish ko‘pincha konstruktiv tahlillar, strukturalarni kuchaytirish metodlari hamda yuqori texnologik modifikatsiyalangan qurilish materiallarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu jarayonda dunyo bo‘yicha yetakchi olimlar — M.A. Dyubois va P.L. Fransua (Fransiya), P.L. Nervi (Italiya), F.X. Rahmon (Bangladesh), J.V. Fisher, F.Y. Cheng va N.M. Nyumark (AQSh), V.G. Degtyarev (Rossiya), U. Junkers (Germaniya) — tomonidan ishlab chiqilgan bir qator yondashuvlar va nazariyalar asosiy ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlari zamonaviy ko‘prik konstruksiyalarini mustahkamlash va yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan

innovatsion konstruktiv echimlarni taqdim etadi.

1. M.A. Dyubois va P.L. Fransua (Fransiya), Dyubois va Fransua ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish uchun konstruktiv kuchaytirish metodlarini ishlab chiqqanlar. Ular asosan beton strukturalarining mustahkamligini yaxshilash maqsadida po‘lat armaturani qo‘shimcha joylashtirish hamda mavjud elementlarning geometriyasini o‘zgartirish usullarini taklif qilgan. Shuningdek, ular ko‘priklarning xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan materiallar va texnologiyalarni joriy qilishga alohida e'tibor berishgan.

2. P.L. Nervi (Italiya), Nervi o‘zining innovatsion po‘lat beton konstruksiyalari bilan mashhur bo‘lib, ko‘priklarda yuk taqsimotini optimallashtirish uchun yangi shakl va arxitektura yechimlarini taklif qilgan. Uning yondashuvi engil, ammo yuqori mustahkamlikka ega strukturalarni yaratishga asoslangan bo‘lib, shu orqali yuk ko‘tarish qobiliyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

3. F.X. Rahmon (Bangladesh), Rahmonning ishlari asosan ekzotik va modifikatsiyalangan materiallar, xususan, yuqori chidamlilikka ega kompozitlar va yangi avlod beton turlarini qo‘llashga qaratilgan. U temirbeton ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishda zamonaviy materialshunoslik yondashuvlarini muvaffaqiyatli integratsiya qilgan.

4. J.V. Fisher, F.Y. Cheng va N.M. Nyumark (AQSh), Amerikalik olimlar ko‘prik strukturalarining analizida ilg‘or hisoblash metodlari, shu jumladan, sonli modellashtirish (finite element method) va dinamik yuklarni hisobga olish texnologiyalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar. Ularning ishlari ko‘priklarning xavfsizligini baholash va kuchaytirish uchun ilmiy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. V.G. Degtyarev (Rossiya), Degtyarev ko‘priklarning konstruktiv kuchaytirish usullarini ishlab chiqishda katta tajribaga ega. U o‘z ishlanmalarida po‘lat armaturaning yangi turlari va yuqori sifatli beton aralashmalarini qo‘llash orqali yuk ko‘tarish qobiliyatini sezilarli oshirishga erishgan. Bundan tashqari, Degtyarev stress-tahlil va strukturaviy monitoring usullarini takomillashtirishga e’tibor qaratgan.

6. U. Junkers (Germaniya), Junkers ko‘priklarda eksperimental tadqiqotlar va modellashtirish yordamida yangi material va konstruktiv yechimlarni sinovdan o‘tkazgan. U metall va kompozit materiallar bilan birlashtirilgan temirbeton konstruktsiyalarni kuchaytirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni ilgari surgan.

Ekspluatatsiyadagi avtomobil yo‘llari temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini yaxshilash, ularning xizmat muddatini uzaytirish hamda xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlash uchun bir qator ilmiy-texnik choralar qo‘llaniladi. Ushbu choralarning samaradorligi ko‘p jihatdan tizimli yondashuvga, yuqori sifatli materiallardan foydalanishga va konstruktsiyalarning rekonstruksiya metodlariga bog‘liqdir. Shu munosabat bilan, zamonaviy tadqiqotlar va amaliyot quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Tizimli monitoring – inshootlarga texnik xizmat ko‘rsatish, ularning ekspluatatsion holatini doimiy nazorat qilish va baholash, qoldiq resurslarni aniqlash hamda ko‘prik yuk ko‘taruvchi konstruksiya elementlarida paydo bo‘lgan nuqson va shikastlanishlarni vaqtida bartaraf etish (reabilitatsiya) uchun ilg‘or dasturiy ta’minotlardan foydalangan holda batafsil tizimli tahlillarni amalga oshirish;

2. Materiallar sifati – ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish uchun yuqori sifatli po‘lat va betonlardan, shu jumladan, kompozit materiallarning ilg‘or konfiguratsiyasi hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

3. Rekonstruksiya – yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish uchun oraliq qurilmalarni yangisiga almashtirish yoki inshoot ko‘ndalang o‘qi bo‘ylab qo‘shimcha oraliq qurilmalar (oraliq

qurilmalarga tushayotgan vaqtinchalik yuklarning tarqatish orqali yuklar taqsimotini optimallashtirish) joylashtirish.

Ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish xarajatlari boshqa transport infratuzilmalarga nisbatan iqtisodiy jihatdan qimmatligini inobatga olsak, ekspluatatsiyadagi inshootlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning samarali hamda resurs tejamkor usulini tanlash muhim hisoblanadi. Hozirda amaliyotda inshootlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning ikkita varianti mavjud bo‘lib, birinchi variant – yuk ko‘taruvchi konstruksiya elementlarini to‘liq almashtirish (*eski me’yoriy hujjatlar (QMQ 2.05.03-97 “Ko‘priklar va quvurlar”*) bilan loyihalanib qurilgan va ekspluatatsiyada bo‘lgan oraliq qurilmalari o‘rniga hozirda raspublikamizda amalda bo‘lgan me’yoriy hujjatlar (*ShNQ 2.05.03-22 “Ko‘priklar va quvurlar”*) bilan loyihalangan oraliq qurilmalarga almashtiriladi); ikkinchi variant – inshootlarning yuk ko‘taruvchi elementlarini reabilitatsiya qilish (*yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish, ta’mirlash, kuchaytirish*) bo‘lib, ushbu usul avtoyo‘l temirbeton ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning birinchi usulga nisbatan resurs tejamkor hisoblanadi.

Ekspluatatsiyadagi avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyati (*yuqorida ta’kidlangan ikkinchi usul yordamida oshirilganda*) metal profillar va po‘lat listlar, temirbeton qoplamalar hamda kompozit materiallar bilan oshirilishi mumkin.

Inshootlar yuk ko‘tarish qobiliyatini metall profillar, sterjenlar va po‘lat listlar yordamida oshirishning an’anaviy usullari yetarlicha samarador (*murakkab geometrik shaklga ega konstruksiya kesimlari uchun montaj ishlari texnologiyasida qiyinchiliklar tug‘diradi*) hisoblanmaydi, chunki bu elementlar juda oson korroziyaga uchraydi.

Temirbeton qoplamalardan foydalanish orqali yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish ko‘p mehnattalab va bir qator texnologik qiyinchiliklar (*temirbeton qoplamalarni montaj qilish uchun maxsus uskunalar talab etiladi*) keltirib chiqaradi. Shuningdek, ushbu usul yordamida yuk ko‘tarish qobiliyati oshirilganda inshoot doimiy yuklarining ortishiga olib keladi.

Kompozit materillar (*matoli kompozit materiallar*) yordamida inshootlarning yuk ko‘arish qobiliyatini oshirish boshqa materiallaridan foydalanishga nisbatan samarali (yuqori elastiklik va korroziyaga chidamlilik), shu bilan birga qimmat ham hisoblanadi.Kompozitsion materiallar -o‘zaro uncha ta’sirlashmaydigan, kimyoviy jihatdan har xil bo‘lmagan komponent (aralashma) larning hajmiy birikishidan hosil bo‘ladigan va komponentlar bir-biridan aniq chegara bilan ajralib turadigan materiallar. Har qaysi komponentning eng yaxshi xossalari (mustahkamligi, yeyilishga chidamliligi va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtirganligi uchun Kompozitsion materiallar ularning hech biriga xos bo‘lmagan ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi. Odatda, Kompozitsion materiallar plastik (metall yoki nemetall — anorganik yoki organik) asos yoki matritsa hamda qo‘shilmalar: metall kukunlari, tolalar, ipsimon kristallar, yupka payraha, gazlama va boshqalardan iborat bo‘ladi. Kompozitsion materiallar turlari: tolali (tolalar yoki ipsimon kristallar bilan mustahkamlangan); dispersion-zichlangan (dispers zarralar bilan mustahkamlangan) va qatlamli (turli xil materiallarni presslab yoki prokatlab olingan).Kompozitsion materiallar tayyorlashning muhim texnologik usullari: armaturalovchi (mustahkamlovchi) tolalarga matritsa materiali shimdirish; mustahkamlagich va matritsa lentalariga press-qolipda shakl berish; komponentlarni sovuqlayin presslab, keyin qovushtirish; mustahkamlagichga matritsani purkab, keyin qisish; komponentlarning ko‘p qatlamli lentalarini diffuziya usulida payvandlash; armaturalovchi elementlarni matritsa bilan birga prokatkalash va hokazo.Kompozitsion materiallar aviatsiya, kosmonavtika, raketasozlik, avtomobil sanoati, mashinasozlik, kon-ruda sanoati, qurilish, kimyo sanoati, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, uy-ro‘zg‘or texnikasi, radiotexnika, energetika, quvur ishlab chiqarishda va boshqa tarmoqlarda qo‘llanadi

Kompozitsion materiallar tayyorlanishi



1.1 rasm kompazit material tarkibi

Xulosa qilib aytganda, ekspluatatsiyadagi ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning samarali va resurs tejamkor usullarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada tizimli yondashuv, yuqori sifatli materiallardan foydalanish va konstruksiyalarning rekonstruksiya metodlarini to‘g‘ri qo‘llash muhim rol o‘ynaydi. Ko'priklarni rekonstruksiya qilishda ilg'or materiallar va ishlab chiqarish texnikasidan foydalanish zarur

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta'minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 342-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 1-noyabrdagi “Avtomobil yo‘llarini qurish va ulardan foydalanishni tashkil etishni hamda sifatini nazorat qilishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 226-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” vazirining 2023-yil 14-iyuldagi 185-son buyrug‘i
4. Bridge Engineering Handbook, Second Edition: Superstructure Design. Edited by Wai-Fah Chen and Lian Duan. © 2014 by Taylor & Francis Group, LLC CRC Press is an imprint of Taylor & Francis Group, an Informa business. International Standard Book Number-13: 978-1-4398-5229-3 (eBook - PDF). – 734 pp. https://onlinelibrary.wiley.com
5. Bridge Engineering Handbook, Second Edition: Construction and Maintenance. Edited by Wai-Fah Chen and Lian Duan. © 2014 by Taylor & Francis Group, LLC CRC Press is an imprint of Taylor & Francis Group, an Informal business. International Standard Book Number-13: 978-1-4398-5233-0 (eBook - PDF). – 646 pp. https://onlinelibrary.wiley.com
6. Raupov Ch.S., “Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi, sinovi va reabilitatsiyasi” Tom I, O‘zROO‘MTV. Toshkent. 2016. – 401 b
7. Межгосударственный стандарт. ГОСТ 26633-91. Бетоны Тяжелые и мелкозернистые Технические условия, Москва, Стандаринформ. 2005.

YENGIL NANOSTRUKTURLANGAN BETON

Erdanov Nodirbek Ibragimovich

Abduqayumov Farrux Otabek o'g'li

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yengil nanostrukturlangan betonlarning shakllanish mexanizmi, ularning asosiy turlari hamda xossalarini yaxshilashda nanotexnologiyalarning o‘rni haqida ma’lumotlar yoritilgan. Asarda yuqori ekspluatatsion xossalari bilan modifikatsiyalangan betonlar, yangi avlod betonlari va nanostrukturalashtirilgan yengil betonlarning nazariy asoslari hamda ularning tarkibiy moddalari tahlil qilinadi.*

Beton tarkibiga nanomodifikatorlar — nanokremnezem, nanopolimerlar va boshqa aktiv qo‘shimchalarni kiritish orqali betonning mustahkamligi, suv o‘tkazmasligi va uzoq muddatli barqarorligini oshirish imkoniyatlari bayon etilgan. Shuningdek, nanostrukturalashtirish jarayonining mikrostrukturaga, issiqlik o‘tkazuvchanlikka va materialning energiya samaradorligiga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. *yengil beton, nanostrukturalashtirilgan beton, yangi avlod betonlari, modifikatsiyalangan beton, nanokremnezem, nanotexnologiya, yuqori ekspluatatsion xossalar, tajribaviy tadqiqot, energiya tejamkor qurilish materiallari*.

Yuqori ekspluatatsion xossalari bilan modifikatsiyalangan betonlar. Yuqori ekspluatatsion xossali betonlarga yuqori mustahkamli, past o’tkazuvchanlik, korroziyaga bardoshligi va uzoqqa chidamligi baland, kirishishi va kengayishi kompensatsiyalangan (birmuncha tiklangan) betonlar kiradi, ya’ni ularning uyg’unligi yoki ulardan bittasining ustunligi foydalanish sharoitlariga bog’liq holda konstruksiyalarning yuqori mustahkamligini ta’minlaydi.

Bunday betonlarning qo’llanishi ko’pgina hollarda konstruksiyalarning korroziyaga qarshi “ikkilamchi” himoyasidan (bo’yash, yopishtirish va boshqa izolyatsiyalardan) voz kechish imkonini beradi.

Qo’llaniladigan materiallar:

- modifikatorlar MB–01, MB–S yoki Embelit;
- miqdori 500 kg/m^3 dan ko’p bo’lmagan oddiy M400 yoki M500 portlandsement;
- zich jinslardan iborat to’ldiruvchilar;
- mustahkamligi 2...10 MPa va zichligi 500...800 kg/m^3 bo’lgan keramzitli shag’al (graviy).

Betonning asosiy xossalari:

- og’ir va mayda donali betonlar uchun kubik mustahkamlik diapazoni 40…120 MPa, u B30...B100 sinflarga mos keladi;
- zichligi bo’yicha markasi D1600...D1800 kg/m^3 bo’lgan konstruksion yengil beton uchun kubik mustahkamlik diapazoni 40…80 MPa, u B30...B60 sinflarga mos keladi.

Qisqa va uzoq muddatli deformativ tavsiflari diapazoni:

– B30...B60 sinfli betonlar uchun – amaldagi me’yorlarga mos keladi (QMQ 2.03.01–97 va QMQ 2.05.03–84);

– B70...B100 sinfli betonlar uchun – maxsus me’yorlashtiriladi:

- normal qotishda bir kunlik yoshida kubik mustahkamlik diapazoni – 25...40 MPa;
- kirishishdan so’ng chiziqli kengayish qoldiq deformatsiyasining sathi 0,02...0,1%, o’z-o’zidan kuchlanishi 0,5...3,0 MPa;
- suv, gaz va xloridlar uchun past o’tkazuvchanlik: suv o’tkazmaslik bo’yicha markasi W12...W20;
- sovuqbardoshligi oddiy betondagidan kam emas, struktura sodir qiluvchi qo’shimchalardan ortiqcha foydalanilganda markasi F700...F1000 gacha yetkaziladi.

Quyidagi hollarda yopishtirmasdan va bo’yamasdan izolyatsiya qilishga bardoshligi:

- kam nordonli muhitda pH 3 bo’lganda;
- tajovuzkor gazlar konsentratsiyasida QMQ 2.03.11–85 da ko’rsatil-ganidan bir pog’ona yuqorida bo’lgan gazli muhitlarda;
- xlorli va sulfatli gazlar konsentratsiyasida QMQ 2.03.11–85 da ko’rsatilganidan bir pog’ona yuqorida bo’lgan suyuqlik muhitlarida;
- betonli qorishmalarning yuqori tiksotropligi va vaqt bo’yicha turg’un konsistensiyasi, ular xatto yuqori plastiklikda (o’z-o’zini tekislaydigan qorishmalar) ham qatlamlanish belgilariga ega bo’lishmaydi.

Og’ir va mayda donali betonlarning xossalari. “MB” seriyali modifikatorni qo’llash oddiy materiallardan (sement va to’ldiruvchilarda) yuqori mustahkamli (B45...B60 sinflilar) va o’ta yuqori mustahkamli (B70...B100 sinflilar) og’ir va mayda donali betonlar olish imkonini beradi.

Konstruksion yengil betonlarning xossalari. “MB” seriyali modifikatorni zichligi 500...800 kg/m^3 va mustahkamligi 1,5...8 MPa bo’lgan keramzitli shag’allar bilan birgalikda qo’llash qatlamlanmaydigan yuqori qo’zg’aluvchan va o’z-o’zidan tekislanuvchi betonli qorishmalardan zichligi bo’yicha markasi D1600...D1800 kg/m^3

va mustahkamligi bo'yicha sinfi V30...V60 bo'lgan konstruksion yengil betonlarni olish imkonini beradi.

Qurilish tarmog'ining eng konservativ sohalaridan biri ko'priksozlik hisoblanadi. Odatda, ko'prik konstruksiyasida qurilish materiallariga tegishli biror bir o'zgartirishni muvofiqlashtirishga kelishish uchun ko'p yillar ketadi.

Yangi avlod betonlari. Yuqori sifatli betonlar atrof muhit va yuklarning murakkab ta'siri sharoitida bino va inshootlarning ekspluatatsion ishonchliligi parametrlarini yuqori kafolatini ta'minlaydi, qurish muddatini anchagina qisqartiradi va investitsion tavakkal (xavf-xatar) ni kamaytiradi. Bularning hammasi zamonaviy qurilish jarayoniga jalb qilingan sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy qatnashchilar uchun juda ham muhim.

Olim va mutaxassislar tomonidan yaratilgan samarali materiallar nomenklaturasi (nomlar-atamalar) va aniqlangan texnologik usullar o'tgan asrning 80–90 yillarida tajriba, tajriba-sanoat qurilmalari va stendlaridan foydalanib, hamda sanoatlashgan ishlab chiqarish sharoitida xom-ash'yo materiallari turlarining keng chegarasida variatsiyalash hisobida keng diapazonli ekspluatatsion tavsiflar bilan betonlar yangi turlarini olishning umuman olganda yangi samarali texnologik sxemalarini yaxshi o'rganish imkonini berdi.

Rossiya betonshunosligida yuqori sifatli betonlar deyilganda yuqori ko'rsatkichli mustahkamlik xossalari (siqilishdagi mustahkamligi bo'yicha sinfi V40 dan V90 gacha va undan katta, u mustahkamligi bo'yicha markasi M600…M1200 ga mos keladi) va qotish sur'atini (tabiiy sharoitda qotishida bir kunlik yoshida mustahkamligi 25...30 MPa dan kam emas) qurilish-texnologik xossalari bilan uyg'unlashtirgan gidravlik bog'lovchilar asosida oson yotqiziladigan betonlar tushuniladi, shu jumladan:

- suv o'tkazmasligi W 12 va undan yuqori;
- sovuqbardoshligi F 400 va undan yuqori;
- yedirilishi 0,3…0,4 g/sm^2 dan katta emas;
- suv shimishi 1…2,5 mas %;
- xloridlar kirishiga yuqori qarshiligi;
- yuqori gaz o'tkazmaslik;
- deformativlik ko'rsatkichlarining boshqarilishi (shu jumladan 14...28 kun tabiiy sharoitda beton kirishishining kompensatsiyasi).

Rossiyadagi yuqori sifatli betonlar qo'llanilgan ob'ektlar ro'yxati yaxshi taassurot tug'diradi. Haqiqatdan ham, masalan, texnologik majmualar sanoatlashgan namunalari yaratilgan, tajriba va tajriba-sanoatlashgan tatbiqi, hamda har xil betonlarning sanoatlashtirilgan o'zlashtirilishi amalga oshirilgan, shu jumladan, yuqori

ekspluatatsion tavsifli betonlardan tayyorlangan transport inshootlarining ko'prik qurilmalari va monolit konstruksiyalarini tayyorlashda (Moskva aylanma yo'li, Kutuzov prospektidagi transport tunneli, avtostradaning shovqinidan himoyalovchi devorlari va b.), "Smolensk rastasi" savdo majmuasi zamonaviy ofis binolari (SDM–Bank), Kunsevo va Mitinodagi turar joy majmualarining qurilishida, Petr I haykalini (poydevor plitasi) ko'tarishda va me'moriy betondan tayyorlangan Iso payg'ambar Ibodatxonasining gorelefi (tekis sathga ishlangan bo'rtma shakl, naqshi) ni, yuqori mustahkamli betondan tayyorlangan dekorativ plitali buyumlarni asliday qilib tiklashda, TBB–100 zavodi (Ivanovo sh.) va №81 sanoat kombinatida (Samara sh.) kompozitsion bog'lovchilardan foydalanib issiq bug'siz texnologiya bo'yicha maxsus va umumqurilish nomenklaturali yig'ma temirbeton konstruksiyalarni ishlab chiqishda, №55 sanoat kombinatida (Moskva vil.) kompleks modifikatorli betonlardan yasalgan ko'p qavatli binolar uchun hajmli-karkasli modullarni tayyorlashda.

Ta'kidlash lozimki, ishlab chiqilgan texnologiyalar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni tez amalga oshirish va maxsus ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlarni chiqarish imkonini beradi, ular bino va inshootlarning xavfsizligini ta'minlash va me'moriy ifodalilikni oshirish imkonini beradi.

1985–1998 yillarda qurilishda yangi betonlardan foydalanib har xil fuqaro ob'ektlari va maxsus inshootlar qurilgan, hamda ko'p miqdorda temirbeton konstruksiyalar va monolit temirbeton qo'llanilgan.

Olimlar ishlanmalarining iqtisodiy samarasi, material sarfining pasayishi, energiya- va mehnat sarfining kamayishi va texnogen chiqindilarni qo'llash, uzoqqa chidamliligining sezilarli oshishi, bino va inshootlar ishlashi va ta'mirlash ishlarini o'tkazish bilan bog'liq ta'mirlar aro muddatning oshishi va ekspluatatsion xarajatlarning kamayishi natijasi bilan aniqlanadi; bular betonning yuqori, oldin erishilmagan ekspluatatsion ishonchliligi ko'rsatkichlari tufayli ta'minlash imkoniyati bilan erishildi.

Bir qator Rossiya tashkilotlari tomonidan boshlangan ishlar harakati kelajakda yaxshi istiqbolga ega. Transport qurilishining rivojlanishi, yangi neft va gaz konlarini o'zlashtirish, shu jumladan sho'r suv, to'lqinli va shamol ta'siri sharoitlarida dengiz qaridagi va yer osti maydonidan foydalanish hajmini va yer osti "mini-shaharlarni" qurishni amalga oshirish, me'moriy temirbeton – mana ularning to'ldirilmagan, ammo yangi betonlar qo'llanishi ratsional sohalarining juda o'ziga xos ro'yxati.

Nanostrukturalashtirilgan yengil betonlar. Betonlarga, asosiy qurilish materiali kabi, har xil loyihalarda yetarlicha turli-tuman talablar bayon qilinadi. Ammo aslida doim loyihachi bunday betondan tayyorlangan detallari ko'taruvchalik xususiyati

saqlanishi yoki xatto yuksalishida minimal solishtirma og'irlik bilan konstruksion betonlarga erishishga manfaatdor.

Qavatlar sonining oshishi va binoning tashqi ko'rinishi o'zgarishida poydevorlarni almashtirmasdan, eski shaharlar markazlarini rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanayotgan avtomobil yo'llari ko'priklari loyihachilari, developerlar (ko'chmas mulk muomalasi bo'yicha professional ixtisosliklaridan biri), baland qavatli bino va inshootlar va sh. o'. larning loyihachilari yengil va mustahkam betonlarga, hamda yuqori klimatik bardoshli (sovuqbardoshli) betonlarga manfaatdor (qiziqishadi).

Maksimal yuqori tavsifli yengil konstruksion betonni yaratish masalalari bilan, bu sohada eksperimental-tadqiqot ishlarini 1998 yildayoq boshlagan Rossiya Amaliy nanotexnologiyalarning ITM astoydil shug'ullandi va beton tarkibiga fulleroid tipidagi sintetik uglerodli nanomateriallarni kiritish bo'yicha tajribalar bilan bog'langan ixtiroga dunyoda birinchi patent olindi.

Qo'yilgan masala standart (sement, daryo qumi, shag'al) va nostandart (mikrokremniy bilan faollashtirilgan, yengil to'ldiruvchi, modifikatsiyalash bazaltli mikrofibra, modifikatsiyalashgan plastifikatorlar va sh. o'.) komponentlarning optimal uyg'unlashuvini qidirish asosida hal qilindi.

Aynan "Qurilishloyiha instituti" MAJ da (ZAO "Institut Stroyproyekt",) kompozitsiyalarni faol o'rganish (ishlov berish) davrida Kimri shahridagi Volga daryosi ustidan o'tadigan ko'prikni rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihaviy hujjatlarni tuzatish bo'yicha ishlar olib borildi va quruvchilar oraliq qismining uzunlashishi hisobiga kema qatnoviga yaroqliligining majburiy oshishi sharoitida yo'l plitasining (1,5 m gacha notekis cho'kishi bilan) tekisligini ta'minlash kuchli zaruriyati bilan to'qnashdilar. Tayanchlar sonining qisqartirilishdan so'ng va, shu sababli, oraliqlar uzunligining kattalashishi vantli konstruksiyalarning mavjudligiga qaramasdan, oddiy betondan qilingan qoplama konstruksiyani juda ham og'irlashtirar ekan.

Og'irlashtiradigan gidroizolyatsiyani bajarishdan voz kechish bilan yengil konstruksion betonni qo'llash to'g'risidagi qarorni qabul qilish eksperimental qadam bo'lib, haqiqatda esa yagona yo'l edi. B30 sinfli cho'zilishda oshirilgan mustahkamli beton bilan yengil fibrobetonni qo'llash uchdan biriga xususiy og'irligini kamaytirish imkonini berdi.

Bu ko'prikning qoplamasi bazaltli mikrofibralar, modifikasiyalashgan nanoklasterli uglerod asosida yengil konstruksion fibrobetondan tayyorlangan.

Bu o'xshashlik (pretsedent) yengil nanobeton texnologiyasini mukammallashtirish va undan foydalanish spektrini kengaytirish bo'yicha ishlarni davom ettirishga

imkoniyat tug’dirdi. Betonli qorishmalarni standart qorishtiradigan beton uzellarida tayyorlash, xatto yetarli darajada ko’priksozlar otryadiga uchun xos bo’lgan yuqori texnologik fan sohasi sharoitlarida ham, qorishmaga bir-ikkitadan ortiq qo’shimcha komponentlarni kiritishga imkon bermaydi. Shunday qilib, standart beton zavodlari sharoitlaridayoq ko’p komponentli kompleks qo’shimchalardan foydalanishga imkon beruvchi kompleks quruq qo’shimchalarni ishlab chiqarishni yaratish to’g’risidagi savol qo’yilgan edi. Bu masalani yechish uchun quvvati bir oyda 800 tonnagacha bo’lgan ixtisoslashtirilgan yarim avtomatik liniya loyihalangan va tayyorlangan, hamda 2008 yilda foydalanishga topshirilgan edi.

Bu quyidagi ob’ektni rejalashtirishga o’tish imkonini berdi, ulardan biri Vyatka daryosi ustidagi ko’prikni rekonstruksiya qilish bo’ldi. Ko’prik 2008 yilda foydalanishga qabul qilindi.

Xulosa. Yengil nanostrukturlangan betonlar zamonaviy qurilish materiallari tizimida alohida o‘rin egallaydi. Nanotexnologiyalarni qo‘llash orqali betonlarning mikrostrukturasi, fizik-mexanik xossalari va ekspluatatsion barqarorligini nazorat qilish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Maqolada yuqori ekspluatatsion xossalari bilan modifikatsiyalangan betonlar, yangi avlod betonlari hamda nanostrukturalashtirilgan yengil betonlarning nazariy jihatlari, ularning tarkibiy tuzilishi va afzalliklari haqida ma’lumotlar yoritildi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, nanomodifikatorlar — xususan, nanokremnezem va nanopolimerlar beton matritsasining ichki tuzilmasini mustahkamlab, suv o‘tkazmaslik, sovuqqa chidamlilik va mustahkamlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, yengil nanostrukturlangan betonlar energiya tejamkor, ekologik xavfsiz va uzoq muddatli qurilish materiallarini ishlab chiqishda muhim yo‘nalish sifatida baholanadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar nanomodifikatsiyalangan kompozitsion tizimlarni chuqur o‘rganish va amaliy ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish orqali yanada kengayishi kutilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Лямина Г.В. Современные проблемы науки в области технологии наноматериалов. Томский политехнический университет. Электронный учебник. http://portal.tpu.ru/SHARED/l/LYAMINA/Tab2/T12.pdf.

2. Малмейстер А. К. Упругость и иеупругость бетона. Изд. АН Латвийской ССР, 1957.

3. Малмейстер А. К. К вопросу обобщения исходных понятий теории пластичности. «Известия АН ЛатвССР», № 2, 1961.

4. Модифицированные бетоны с высокими эксплуатационными

свойствами. ООО «Предприятие Мастер Бетон». НИИЖБ и Центр модифицированных бетонов http://www.master-concrete.com/ http://www.master-concrete.com/concrete.htm.

5. Нанотехнологии в строительстве. «Нанотехнологии в строительстве»: научный интернет-журнал ООО «Центр Новых Технологий «НаноСтроительство». http://rusnanonet.ru/nanoindustry/construction/constr_field/.

6. Ne'mat M. et al. BASALT FIBER IS INCORPORATED INTO CONCRETE MIXES TO FABRICATE PRECAST CONCRETE AND REINFORCED CONCRETE STRUCTURES //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 8-18.

7. Raupov C., Malikov G. Creep in expanded clay concrete at different levels of stress under compression and tension //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 365. – С. 02008.

8. Raupov C., Malikov G. Comparison of microcrack formation boundaries determined by complex of physical methods with long-term strength of expanded clay concrete under different types of stress state //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 365. – С. 02023.

9. Raupov C., Malikov G. Determination of physical and structural-mechanical characteristics of expanded clay concrete //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A5. – С. 264-275.

10. Зокиров Ф. З., Маликов Г. Б., Рахимжанов З. К. РАСЧЕТ ДЛИНЫ ВРЕМЕННЫХ ВОДОПРОФИЛЕЙ ПРИ ФУНДАМЕНТА МОНТАЖНЫХ РАБОТАХ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1253-1258.

11. Raupov C. S., Malikov G. B., Zokirov J. J. FOREIGN EXPERIENCE IN THE USE OF HIGH-STRENGTH EXPANDED CLAY CONCRETE IN BRIDGE CONSTRUCTION (LITERATURE REVIEW) //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 125-140.

12. Raupov C. S., Malikov G. B., Zokirov J. J. Foreign experience in application of high-strength expanded clay concrete in buildings and structures (review of published studies) //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 135-142.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЫЕ

1	*Ramatov Jumaniyoz Sultanovich. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Juraev Odilbek Saidkarim o'g'li.*	***ETNOMADANIY IJTIMOIY TARAQQIYOYGA TA'SIRI***	3-6
2	*Qobilova Dilshoda Xalil qizi*	***FINLANDIYADA BOSHLANG'ICH TA'LIMINI OLIB BORISH USULLARI TAHLILI***	7-9
3	*Мирзахидова Озода Мирабдуллаевна*	***ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ГЕОМАТЕРИАЛОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ЗЕМЛЯНОМ ПОЛОТНЕ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ***	10-13
4	*Ramatov Jumaniyoz Sultanovich. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Yo'ldashev Iskandar ismoil o'g'li.*	***MA'NAVIY TARBIYA – JAMIYAT BARQARORLIGIINING MEZONI***	14-16
5	*Адбукаюмов Фаррух Отабек угли Абдукамилов Шавкат Шухратович*	***ПОВЫШЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО НАСЫПИ ГЕОСИНТЕТИЧЕСКИМИ МАТЕРИАЛАМИ***	17-20
6	*Мирханова Мавжуда Михайловна Мамадалиев Асадбек Турсунали угли*	***УДЛИНЕНИЯ СРОК СЛУЖБЫ РЕЛЬСОВ С ПОМОЩИ ШЛИФОВКИ***	21-24
7	*Абдуалиев Элёрбек Бегалиевич Мирханова Мавжуда Михайиловна Умаралиев Шохжахон Мухаммадрўзи ўгли*	***ТЕМИР ЙЎЛЛАРИДАГИ СУВ ЎТКАЗУВЧИ ҚУВУРЛАРНИНГ ХОЛАТИ ГЕОРАДАР ЁРДАМИДА АНИҚЛАШ***	25-28
8	*Eshonov Farhad Fayzullakhuzhaevich Umaraliev Shokhzhakhon Mukhammadruzi ugli Embergenov Avezmurat Bekmuratovich*	***METHODS OF INSPECTION OF CULVERTS***	29-32
9	*Eshonov Farhad Fayzullakhuzhaevich Umaraliev Shokhzhakhon Mukhammadruzi ugli Embergenov Avezmurat Bekmuratovich*	***DETERMINATION OF THE CARRYING CAPACITY OF CULVERTS OF RAILWAYS***	33-36
10	*Eshonov Farhad Fayzullakhuzhaevich Umaraliev Shokhzhakhon Mukhammadruzi ugli Embergenov Avezmurat Bekmuratovich*	***GEORADIOLOCATION DIAGNOSTICS OF AN EARTH BED IN A RAILWAY TRACK***	37-41
11	*Avazova Marjona Qaxramon qizi*	***PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YOSHLAR KAMOLOTIDAGI O'RNI***	42-44
12	*Мухаммадиев Н.Р. Файзиев У.А.*	***ПРОМЫШЛЕННЫЕ ПОЛЫ С БЕТОНОМ НА ОСНОВЕ ЦЕОЛИТОВОЙ ПОРОДЫ***	45-47
13	*Шаяхметов Саулет Хальфин Гали-Аскар*	***РАЗВИТИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ СФЕРЫ СОВРЕМЕННОГО ТАШКЕНТА***	48-50

14	*Bakhodir Abdusamatovich Mirsalikhov Shovkat Nigmatjanovich Saytdjanov*	***THE IMPORTANCE OF STUDYING THE BIOLOGICAL EFFECTS OF RADIATION***	51-53
15	*Abdukamilov Shavkat Shuhratovich Abduqayumov Farrux Otabek*	***TEMIR YO‘L KO‘TARMALARNI MUSTAHKAMLASHNI RAQAMLI MODELLASHTIRISH***	54-58
16	*Махамаджанов Шухратжон Шавкат угли*	***МЕТОДИКА ДИАГНОСТИКИ ЗЕМЛЯНОГО ПОЛОТНА ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ***	59-61
17	*Azamjonov Ro‘ziboy Saydmurodjon o‘g‘li A'zamov Saidikrom Saidmurodovich*	***AVTOMOBIL KO‘PRIKLARINING GIDROIZOLYATSIYASINI KUCHAYTIRISH USULLARI***	62-65
18	*Normurodov Sh.U.*	***THE IMPORTANCE OF LABOR PROTECTION IN PRODUCTION***	66-68
19	*Пурцеладзе Ирина Борисовна*	***АНАЛИЗ МИРОВОГО ОПЫТА И МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРЕБОВАНИЙ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫХ К СКОРОСТНЫМ И ВЫСОКОСКОРОСТНЫМ МАГИСТРАЛЯМ.***	69-73
20	*Choriyev Rustam Alisher o‘g‘li Umarov Xasan Kobilovich*	***O‘ZBEKISTON TEZYURAR VA YUQORI TEZLIKLI TEMIR YO‘LLARI TARMOG‘INING ZAMONAVIY TEXNIK HOLATINI TAHLILI***	74-77
21	*Mamurjonova G.R.*	***YAPON ADABIYOTIDA MODERNIZMNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI***	78-84
22	*Salixanov Saidxan Salixanovich Azamjonov Ro‘ziboy Saydmurodjon o‘g‘li*	***TO‘SINLI TEMIRBETON ORALIQ QURILMALARINING YUK KO‘TARISH QOBILIYATINI OSHIRISH USULLARI***	85-88
23	*Erdanov Nodirbek Ibragimovich Abduqayumov Farrux Otabek o'g'li*	***YENGIL NANOSTRUKTURLANGAN BETON***	89-95